M.R. KARIMOV, O.M. ALIMNAZAROV

MEXANIKA

FANIDAN HISOB–GRAFIK ISHLARI VA KURS LOYIHALARINI BA JARISH BO‘YICHA

(o‘quv qo‘llanma)

TOSHKENT -2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

M.R. KARIMOV, O.M.ALIMNAZAROV

MEXANIKA

(Nazariy mexanika, Materiallar qarshiligi, Mashina mexanizmlar nazariyasi va Mashina detallari)

fanlaridan hisob – grafika ishlari va kurs loyihalarini bajarish bo‘yicha

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

TERMIZ - 2024

UDK 62-2:531(075.8)

BBK 34.44+22.21ya73 K 25

t.f.f.d., M.R.Karimov, O.M.Alimnazarov, "Mexanika (Nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, mashina mexanizmlar nazariyasi va mashina detallari) fanlaridan hisob-grafik ishlari va kurs loyihalari"ni bajarish: O'quv qo'llanma. – Termiz: 2024, 192 b.

O'quv qo'llanmada "Mexanika (Nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, mashina mexanizmlar nazariyasi va mashina detallari)" fanlaridan quyidagi 60712500-Transport vositalari muhandisligi ta'lim yo'nalishi va unga turdosh ta'lim yo'nalishlarida tahsil oluvchi talabalarga hisob-grafik ishlari va kurs loyihalarini bajarish bo'yicha asosiy usullar matematik formulalar yordamida hisoblash bo'yicha zarur bo'lgan tavsiyalar, ko'rsatmalar keltirilgan bo'lib, unda kurs loyihasini hisoblash usullarini o'z ichiga olgan bo'lib, yurutmaning kinematik tahlili, yurutma uchun elektrodvigatelni tanlash, bir pog'onali to'g'ri tishli va qiya tishli silindrik uzatmalarni loyihalash, bir pog'onali konussimon va chervyakli uzatmalarni loyihalash, yurutmaning eskiz va ishchi chizmasini tayyorlash, podshipniklarni tanlash, muftalarni tanlash shartlarini aniqlashga doir ko'nikmalarini talabalarda shakllantirish nazarda tutilgan.

Taqrizchilar: A.U.Qo'ziyev – TerDU "Transport tizimlari va inshootlari" kafedrasi dotsenti, t.f.n.

R.Q.Qalandarov – TMTI "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrasi professori, t.f.n.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliigining 2023-yil 6-noyabrdagi 491-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9322-4-3

KIRISH

Mamlakatimizda ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish uchun yuqori malaka va bilimga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash va ularga ishlab chiqarish tarmoqlari va inshootlarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish uchun keng talablar qo'yilmoqda. Buning uchun esa bo'lajak bakalavrlardan zamonaviy talablarga javob bera olishi hamda sohaga doir ma'lumotlardan xabardor bo'lishlari va ularning muqobil yo'llarini tanlay bilishlari zaruriyati talab etiladi.

O'quv qo'llanma 60712500-Transport vositalari muhandisligi ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quv qo'llanmada "Nazariy mexanika" bo'limining statika, kinematika va dinamika bo'limlariga oid hisoblash ishlarini olib borish usullari ko'rsatilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada hisoblash ishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadigan zaruriy ko'rsatmalar berilgan.

O'quv qo'llanmaning "Materiallar qarshiligi" bo'limida cho'zilish – siqilishda statik aniq va noaniq masalalar, sterjenning buralishi va tekis shakllarning geometrik xarakteristikasi hamda eguvchi moment epyuralarini qurish bo 'yicha talabalar mustaqil topshiriqlarni bajarish uchun vazifalar berilgan.

O'quv qo'llanmaning "Mashina va mexanizmlar nazariyasi" bo'limida mexanizmlarni loyihalash va ularni tekshirishning nazariy hamda amaliy usullari hamda zaruriy tushuncha va ko'rsatmalar taqdim etilgan. Mexanizmning kinematik sxemasini to'g'ri tanlash, uni kinematikasini va dinamikasini hisoblash hisoblanadi.

Hozirgi texnika taraqqiyotining barcha sohalaridagi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni yuqori malakali mutaxassislar boshqarishini talab qiladi. O'z navbatida har bir muhandis mashina va mexanizmlarni loyihalash, ularni tekshirish, takomillashtirish usullarini yaxshi bilishi talab etiladi.

Avval richagli mexanizmlarini strukturaviy, kinematik va kinetostatikaviy tekshirishlar yuzasidan kurs loyiha (ishi), keyin tishli va kulachokli mexanizmlar yuzasidan kurs loyiha (ishi) lari bajariladi.

Mexanizmning tarkibidagi zveno, kinematik juft va guruhning geometrik va kinematik, dinamik parametrlarini hisoblash usullarining asoslarini yaxshi o'rganib chiqan talabalar murakkab tuzilishga ega bo'lgan mexanizmlarni be'malol loyihalashi va tadqiq etishi mumkin bo'ladi.

O'quv qo'llanmada "Mashina detallari" bo'limi bo'yicha amaliy mashg'ulotning mavzulari, ularning qisqacha mazmunlari va masalalarni bajarish tartiblari bo'yicha tavsiyalar va masalalar yechish bo'yicha namunalar berilgan.

Shuningdek, talabalarga topshiriqlarni mustaqil bajarish uchun vazifalar berilgan.

Bu vazifalarni talabaning qanday darajada bajarganligiga qarab baholanadi.

Baholash tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasi va uni tahlil qilaolishiga qarab;

b) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllanganligi hamda axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanganligiga qarab;

d) fanning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilganligi va uni tahlil qilaolishiga qarab.

I – BOB. NAZARIY MEXANIKA

Hisob – grafik ishining mazmuni va hajmi

Hisob – grafik ishining maqsadi talabalarning o'qish davrida olgan bilimlarini aniq muhandislik yechimini aniqlashni o'rgatishdan iborat bo'lib, shu bilan birgalikda masalalarni yechishning ilg'or texnologik jarayonlarini ishlab chiqishni o'rganish, talabalarni konstruktorlik g'oyalarini amalga joriy etishga tayyorlash va ularning amaliy faoliyatlarini olib borishlari uchun yo'naltirishdir.

Hisob – grafik ishi A4 (210x297 mm) bichimdagi 20...25 sahifadan iborat hisob tushintiruv yozuvidan iborat bo'ladi.

Hisob tushintiruv yozuvi quyidagi bo'limlardan iborat bo'lishi kerak:

- Titul varag'i (muqova);
- Kirish;
- Mavzularga oid nazariy ma'lumotlar;
- Berilgan topshiriqlarni bajarish tartibi;
- Xulosa;
- Foydalanilgan adabiyotlar.

1-Topshiriq. Ramkaga nisbatan bog'lanish reaksiya kuchlarini aniqlash

Ramkaga ta'sir etuvchi kuch vektorlari ta'siridagi tayanch reaksiya kuchlarini qiymatini toping. Topshiriq namunalari 1.2-jadvalda keltirilgan. Topshiriqni bajarish uchun qiymatlar 1.1-jadvalda ko'rsatilgan.



Topshiriqni bajarish uchun namuna

Berilgan: Rasmda ramka namunasi keltirilgan.

G=3kN; P_1=2kN; P_2=0; P_3=5kN; q=8kN/m; M=4kN·m; $\alpha_1=30^0$; $\alpha_2=60^0$; a=1m.

Ramkaga ta'sir etuvchi kuch vektorlari va ularning reaksiyalarini aniqlaymiz.



Hisoblash: X_A va Y_A A sharnirning tekislikdagi noma'lum reaksiyalari, biz ularning qiyamatlarini koordinata o'qlaridagi proeksiyalari bo'yicha aniqlaymiz. R_B B tayanch reaksiyasi va ularni $R_B\cos\alpha_2$ va $R_B\sin\alpha_2$ tayanch tekisligiga perpendikulyar ravishda yo'naltirmaiz. Arqonning taranglik kuchi ramkadan S_D bo'ylab yo'naladi va yukning og'irlik kuchiga ekvivalent bo'ladi. S_D=G=3kN.

Gorizantal ta'sir etuvchi Q kuch taqsimlangan kuch intensivligi q uchastkaning shakli to'g'ri to'rtburchak bo'lganligi sababli, uning dioganallari kesishgan nuqta ya'ni o'rtasiga to'g'ri keladi. $Q=2a\cdot q$

Ramkaga tatbiq etilgan tekis kuchlar tizimi uchun uchta muvozanat tenglamasini tuzamiz.

$$\sum M_A=0; \quad \sum X_i=0; \quad \sum Y_i=0.$$

$$\sum M_A=-Q\cdot a-P_3\cdot \sin\alpha_1\cdot 2a-P_2\cdot \cos\alpha_2\cdot 2a+P_2\cdot \sin\alpha_2\cdot a-S_D\cdot 2a+P_1\cdot \sin\alpha_1\cdot 2a-$$

$-P_1 \cdot \cos\alpha_1 \cdot 4a + M + R_B \cdot \sin\alpha_2 \cdot 2a + R_B \cdot \cos\alpha_2 \cdot 4a = 0;$

$\sum X_i = X_A + Q + P_3 \cdot \sin\alpha_1 + P_2 \cdot \cos\alpha_2 + S_D - P_1 \cdot \sin\alpha_1 + R_B \cdot \sin\alpha_2 = 0;$

$\sum Y_i = -Y_A - P_3 \cdot \cos\alpha_1 + P_2 \cdot \sin\alpha_2 - P_1 \cdot \cos\alpha_1 + R_B \cdot \cos\alpha_2 = 0.$

$R_B = 7,483\ kN$

$X_A - 26,98\ kN$

$Y_A = 0,4185\ kN$

Hisoblashlarning to'g'riligini tekshirish uchun ixtiyoriy tanlangan nuqta uchun muvozanat tenglamasini tuzamiz.

$\sum M_C = Q \cdot a + X_A \cdot 2a + P_2 \cdot \sin\alpha_2 \cdot a - P_1 \cdot \cos\alpha_1 \cdot 4a + M + R_B \cdot \sin\alpha_2 \cdot 4a + R_B \cdot \cos\alpha_2 \cdot 4a = 0;$

$\sum M_C = 0$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1.1 – jadval

№	M	P_1	P_2	P_3	G	q	α_1	α_2	a
	kN·m	*kN*	*kN*	*kN*	*kN*	*kN/m*	*gradus*	*gradus*	*m*
1	4	0	5	9	10	0,5	45	60	0,5
2	2	6	0	10	12	1,2	30	45	1,0
3	3	4	12	0	14	2,0	60	30	1,2
4	6	0	8	15	6	2,2	45	45	0,8
5	10	16	0	20	8	3,0	30	60	1,0
6	12	8	20	0	1	1,6	60	45	1,2
7	16	0	0	20	5	1,8	45	45	1,4
8	8	20	6	6	9	1,5	30	30	1,4
9	4	0	0	0	30	2,4	60	30	1,2
10	6	20	23	12	22	0,8	30	45	1,8
11	2	6	24	25	25	1,0	45	60	3,0
12	3	0	21	23	24	1,3	60	60	3,4

13	5	25	22	12	23	1,8	45	45	3,0
14	6	24	24	16	18	2,0	30	45	2,0
15	8	0	21	18	5	2,5	45	30	2,4
16	12	23	12	20	7	3,0	45	60	0,8
17	13	22	14	21	12	1,7	30	60	0,5
18	14	12	17	26	16	1,9	60	30	1,2
19	2	16	19	23	18	1,7	60	45	3,1
20	15	18	20	15	20	0,8	45	45	2,5
21	17	25	0	16	22	0,6	30	45	3,0
22	18	27	23	0	14	1,4	45	30	2,3
23	21	22	24	12	18	1,8	60	30	2,0
24	12	24	25	17	12	1,4	45	45	3,0
25	14	18	28	18	29	0,8	45	60	0,7
26	16	15	29	25	25	1,6	30	60	0,9
27	18	12	25	20	23	1,5	30	60	1,4
28	14	14	23	22	18	3,0	60	45	1,8
29	12	16	15	0	8	2,7	60	45	1,6
30	18	17	16	12	10	3,0	45	30	2,0

1.2 – jadval

1 – topshiriq	2 – topshiriq
	
3 – topshiriq	**4 – topshiriq**
	
5 – topshiriq	**6 – topshiriq**
	

7 – topshiriq	8 – topshiriq
	
9 – topshiriq	10 – topshiriq
	
11 – topshiriq	12 – topshiriq
	

13 – topshiriq	14 – topshiriq
	
15 – topshiriq	16 – topshiriq
	
17 – topshiriq	18 – topshiriq
	

19 – topshiriq	20 – topshiriq
	
21 – topshiriq	22 – topshiriq
	
23 – topshiriq	24 – topshiriq
	

25 – topshiriq	26 – topshiriq
	
27 – topshiriq	28 – topshiriq
	
29 – topshiriq	30 – topshiriq
	

Bajarilgan ishni himoya qilish bilan, talaba nazorat savollariga javob berishga tayyor bo'lishi kerak.

Nazorat uchun savollar:

1. Statik masalalarni yechish tartibi.
2. Bog'lanishlar turlari, bog'lanish reaksiyalari.
3. Statik aksiomalar.
4. Tekislikdagi kuch momenti.
5. Tekislikdagi kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi tenglamasi.
6. Statik aniq va aniqmas masalalar.

2 – Topshiriq. Qattiq jismning aylanma harakatidagi tezlik va tezlanishini aniqlash

1 yukni noma'lum harakat tenglamasi uchun chiziqli tezligini aniqlang, shuningdek mexanizmni M nuqtasining urinma, normal va to'la tezlanishini va ma'lum vaqt oralig'idagii yuk bilan yuradigan yo'l S ni aniqlang. Mexanizm namunasi 2.2 – jadvalda ko'rsatilgan. Hisoblash uchun zarur qiymatlar 2.1 – jadvalda keltirilgan.

Topshiriqni bajarish uchun namuna.



Berilgan: $R_2=50\ sm;\ r_2=40\ sm;\ R_3=20\ sm;\ S=45\ sm;$ yukning harakat qonuni $x=5+10t^2$ sm (t – vaqt).

3 g'ildirakni M nuqtasining V_M tezligi, a_M to'la tezlanishi, ω_3 burchak tezligi va ε_3 burchak tezlanishini aniqlang.

Hisoblash. $x=x(t)=5+10t^2=45$ sm,

$$t=\sqrt{\frac{45-5}{10}}=2\ sek.$$

Harakat qonunidan vaqt bo'yicha olingan birinchi darajali differensiyali tezlikka teng.

$V_1=\dot{x}=20t\ sm/sek$

A nuqtaning chiziqli tezligi yukning tezligiga teng.

$$V_A=V_1=20\ t\frac{sm}{sek}.$$

C nuqtada bog'lanishda bo'lgan 2 g'ildiraklar chetki qismida joylashgan A va B nuqta yordamchi birlikka ulanadi, uning chiziqli tezligi B nuqta tezligiga teng.



$V_A=V_C=V_B=20\ t\ sm/sek$

C nuqta 2 g'ildirakning chiziqli tezligi va burchak tezligi ω_2 quyidagicha aniqlanadi:

$$\omega_2=\frac{V_C}{R_2}=\frac{20t}{50}=0,4t\cdot\ rad/sek$$

D nuqtasi 2 g'ildirakka tegishli va kichikroq radiusda joylashgan. 2 g'ildirakning burchak tezligi ω_2 berilgan bo'yicha D nuqtaning chiziqli tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$V_D=\omega_2\cdot r_2=0,4t\cdot 40=16t\cdot sm/sek$

Moslanuvchan bog‘lanish yordamida 3 g‘ildiraklarda joylashgan E nuqta 2 g‘ildirakka ulanadi, shuning uchun uning chiziqli tezligi D nuqtasi tezligiga teng.

$V_E=V_D=16t\cdot sm/sek$

Shuning uchun M va E nuqtalarning joylashuvi bir xil aylanada yotadi.

$V_E=V_D=16t\cdot sm/sek$

Tezlik vektori 3 g‘ildirakning aylanish yo‘nalishi bo‘yicha radiusga perpendikulyar ravishda yo‘nalgan.

M nuqta 3 g‘ildirakning chiziqli tezligi va burchak tezligi ω_3 quyidagicha aniqlanadi:

$$\omega_3=\frac{V_M}{R_3}=\frac{16t}{20}=0,8\ t\ rad/sek$$

3 g‘ildirakning burchak tezligi ω_3, bilan burchak tezlanishi ε_3 quyidagicha aniqlanadi:

$\varepsilon_3=\dot{\omega}_3=0,8\ rad/sek$

M nuqtaning urunma tezlanishi:

$a_M^\tau=\varepsilon_3\cdot R_3=0,8\cdot 20=16\ sm/s^2$

Urunma vektori tezlikni vektor bilan bir xil yo‘nalishga ega, chunki ko‘rib chiqilayotgan misolda g‘ildirakning aylanishi bir xil tarzda tezlashadi.

M nuqtaning normal tezlanishi:

$a_M^n=\omega_3^2\cdot R_3=20\ \omega_3^2\ sm/s^2$

3 g‘ildirak markaziga radius bo‘yicha yo‘nalgan.

M nuqtaning to‘la tezlanishi quyidagicha aniqlanadi:

$$a_M=\sqrt{(a_M^n)^2+(a_M^\tau)^2}$$

V_M	Tezlanish sm/s^2			ω_3	ε_3
	a_M^n	a_M^τ	a_M		
32	51,2	16	53,64	1,6	0,8

2.1 – jadval

	Radius, *sm*				Yukning harakat qonuni $x=x(t)$ *(x-sm, t-s)*	S, *sm*
	R_2	r_2	R_3	r_3		
1	60	45	36	-	$10+100t^2$	50
2	80	50	60	-	$80t^2$	10
3	100	60	75	-	$18+70t^2$	20
4	58	45	60	-	$50t^2$	50
5	30	20	100	-	$8+40t^2$	10
6	100	60	15	-	$5+60t^2$	50
7	45	35	110	-	$7+90t^2$	20
8	90	20	10	-	$4+30t^2$	50
9	120	100	30	-	$3+80t^2$	20
10	100	80	20	-	$70t^2$	40
11	40	25	10	-	$5+40t^2$	30
12	50	30	20	-	$2+50t^2$	10
13	30	20	60	-	$60t^2$	40
14	25	10	15	-	$6+20t^2$	10
15	15	-	15	10	$8+40t^2$	30
16	30	-	20	15	$3+40^2$	40
17	40	30	70	-	$80t^2$	60
18	30	15	20	-	$4+20t^2$	30
19	15	10	50	-	$5+80t^2$	20
20	25	15	30	-	$50t^2$	30
21	20	10	50	30	$4+90t^2$	50
22	40	20	30	15	$10+40t^2$	50
23	30	20	15	10	$7+40t$	60
24	10	30	40	-	$90t^2$	20
25	50	20	32	-	$20+50t$	50
26	32	16	40	16	$5+60t^2$	10
27	40	18	30	10	$6+30t^2$	30
28	50	25	60	15	$50t^2$	40
29	25	20	30	60	$33+30t^2$	60
30	30	15	22	-	$5+60t^2$	20

2.2 – jadval

1 – topshiriq	2 – topshiriq
	
3 – topshiriq	4 – topshiriq
	
5 – topshiriq	6 – topshiriq
	

7 – topshiriq	8 – topshiriq
	
9 – topshiriq	10 – topshiriq
	
11 – topshiriq	12 – topshiriq
	

13 – topshiriq	14 – topshiriq
	
15 – topshiriq	16 – topshiriq
	
17 – topshiriq	18 – topshiriq
	

19 – topshiriq	20 – topshiriq
	
21 – topshiriq	22 – topshiriq
	
23 – topshiriq	24 – topshiriq
	

25 – topshiriq	26 – topshiriq
	
27 – topshiriq	28 – topshiriq
	
29 – topshiriq	30 – topshiriq
	

Bajarilgan ishni himoya qilish bilan, talaba nazorat savollariga javob berishga tayyor bo‘lishi kerak.

Nazorat uchun savollar:

1. Nuqta harakatining berilish usullari.
2. Qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakati.
3. Qattiq jismning parallel harakati.
4. Qattiq jismning murakkab harakati.
5. Qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakatida burchak tezligi va burchak tezlanishi.

3 – Topshiriq. Kuch ta'siridagi qattiq jismning aylanma va ilgarilanma harakatini aniqlash

G'ildiraklarning massalari m_1 va m_2 ga teng. Yuk massasi esa m_3=400 kg bo'lsa, katta va kichik g'ildiraklarning radiuslari R_1, r_1, R_2, r_2 ga teng. Ipning taranglik kuchini aniqlang. Mexanizm namunasi 4.2 – jadvalda ko'rsatilgan. Hisoblash uchun zarur qiymatlar 4.1 – jadvalda keltirilgan.

Ishni bajarish uchun namuna: 1 va 2 g'ildirak va 3 yuk mexanik tizimni tashkil etadi. 1 g'ildirakka $M=M(t)$ juft kuch momenti bilan $P=P(t)$ kuch ta'sir etadi. $t_o=0$ dan t vaqtda 1 g'ildirakning burchak tezligi ω_{10} ga teng. Mc moment 2 g'ildirakning aylanishiga qarshilik qiladi.



Berilgan:

m_1=100 kg; m_2=150 kg; m_3=400 kg; M=4200+200t N·m; Mc=2000 N·m; R_1=60 sm; R_2=40 sm; r_2=20 sm; $\rho_1=20\sqrt{2}$ sm; ρ_2=30 sm; t=1 sek

1 g'ildirakning aylanma harakat tenglamasi $\varphi_2=f(t)$ ga teng.

Yechish:

Mexanizmni alohida qismlarga ajratamiz. 1 g'ildirakning og'irlik kuchi G_1, momenti M, tayanch reaksiya kuchlari Y_A, Z_A, harakatlantiruvchi kuch S_1 va 2 g'ildirakning ta'sir normal reaksiya kuchi N_1 ga teng.

Mexanizmni alohida qismlarga ajratamiz. 2 g'ildirakning og'irlik kuchi G_2, momenti M, tayanch reaksiya kuchlari Y_A, Z_A, harakatlantiruvchi kuch S_2 va 1 g'ildirakning ta'sir normal reaksiya kuchi N_2 ga teng.

Ipning taranglik kuchi T va 3 yukning og'irlik markazi G ga teng.



$S_2=S_1$, $N_2=N_1$, $T'=T$

G'ildirak 1 ning x_1 o'q atrofidagi harakat differensiyal tenglamasini tuzamiz:

$$J_1\ddot{\varphi}_1=\sum M^e_{kx},\quad \sum M^e_{kx}=M-S_1R_1$$

G'ildirak 1 ning aylanma differensiyal tenglamasi

$$J_1\ddot{\varphi}_1=M-S_1R_1$$

G'ildirak 1 ning x_2 o'q atrofidagi harakat differensiyal tenglamasini tuzamiz:

$$J_2\ddot{\varphi}_2=\sum M^e_{kx},\quad \sum M^e_{kx}=S_2R_2-Tr_2-M_C$$

G'ildirak 1 ning aylanma differensiyal tenglamasi quyidagicha ifodalaniladi:

$$J_2\ddot{\varphi}_2=S_2R_2-Tr_2-M_C$$

Yukning harakat differensiyal tenglamasini tuzamiz:

$$m_3\ddot{z}=\sum F^e_{kz},\quad \sum F^e_{kz}=T'-G_3$$

Yukning ilgarilanma harakat differensiyal tenglamasi

$m_3\ddot{z}=T'-G_3$

$\ddot{\varphi}_1/\ddot{\varphi}_2=R_2/R_1$

$\ddot{z}=\ddot{\varphi}_2 \cdot r_2$

$m_3 \cdot \ddot{\varphi}_2 \cdot r_2=T-m_3 g$

$m_3 \cdot \ddot{\varphi}_2 \cdot r_2+m_3 g=T$

$SR_1=M-J_1\ddot{\varphi}_1$

$SR_2=J_2\ddot{\varphi}_2+Tr_2+M_C$

$J_1=m_1\rho_1^2$

$J_2=m_2\rho_2^2$

$J_1=8kg \cdot m^2$

$J_2=13,5\ kg \cdot m^2$

$M-J_1 \cdot \ddot{\varphi}_1=J_2 \cdot \ddot{\varphi}_2+Tr_2+M_C$

$J_2 \cdot \ddot{\varphi}_2+J_1 \cdot \ddot{\varphi}_1=M-Tr_2-M_C$

$\ddot{\varphi}_1/\ddot{\varphi}_2=R_2/R_1$

$J_2 \cdot (R_2/R_1 \cdot \ddot{\varphi}_2)+J_1 \cdot \ddot{\varphi}_1=M-Tr_2-M_C$

$J_2 \cdot (R_2/R_1 \cdot \ddot{\varphi}_2)+J_1 \cdot \ddot{\varphi}_1=M-(m_3 \cdot \ddot{\varphi}_2 \cdot r_2+m_3 g)r_2-M_C$

$4400-(400 \cdot 0,2 \cdot \ddot{\varphi}_2+400 \cdot 9,81)0,2-2000=13,5\ddot{\varphi}_2+8(\frac{2}{3} \cdot \ddot{\varphi}_2)$

$4400-8\ddot{\varphi}_2-785-2000=13,5\ddot{\varphi}_2+5,5\ddot{\varphi}_2$

$4400-785-2000=27\ddot{\varphi}_2$

$1615=27\ddot{\varphi}_2$

$\ddot{\varphi}_2=60\ rad/s^2$

$m_3 \cdot \ddot{\varphi}_2 \cdot r_2+m_3 g=T$

$400 \cdot 60 \cdot 0,2+400 \cdot 9,81=T$

$T=8724\ N$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

4.1 – jadval

№	m_1	m_2	R_1	R_2	ρ_1	ρ_2	*M, P*	*Mc*	*t*	Jism
1.	100	300	20	60	-	50	*2100+20t*	1000	2	1
2.	300	80	70	20	60	-	*9800+100t*	600	0,5	2
3.	200	100	60	30	-	25	*6100+20t*	800	2,5	1
4.	100	250	20	50	-	40	*1000+40t*	1400	2	1
5.	150	300	30	50	-	30	*5500+200t*	1500	1	3
6.	400	250	70	30	-	25	*4800+10t*	800	4	1
7.	300	200	60	30	50	20	*3000+10t*	500	3	3
8.	300	250	50	40	40	30	*9700+50t*	500	2	1
9.	200	100	80	20	65	-	*5900+30t*	600	3	2
10.	250	100	40	30	30	-	*2500+50t*	1200	1,5	2
11.	150	300	40	60	30	40	*3900+50t*	1500	2	1
12.	180	100	50	30	40	20	*2700+200t*	400	1	2
13.	150	100	50	60	65	-	*2100+20t*	1000	2	1
14.	300	80	40	20	30	-	*9800+100t*	600	0,5	2
15.	300	180	20	30	30	65	*6100+20t*	800	2,5	1
16.	250	250	60	50	40	30	*1000+40t*	1400	2	1
17.	200	100	50	50	65	30	*5500+200t*	1500	1	3
18.	250	100	20	30	-	-	*4800+10t*	800	4	1
19.	400	150	50	30	65	20	*3000+10t*	500	3	3
20.	200	100	50	40	30	-	*9700+50t*	500	2	1
21.	250	150	50	20	30	30	*5900+30t*	600	3	2
22.	200	100	60	30	40	-	*2500+50t*	1200	1,5	2
23.	100	80	40	60	65	-	*3900+50t*	1500	2	1
24.	150	200	30	30	-	40	*2700+200t*	400	2	1
25.	250	80	60	60	-	-	*2100+20t*	1000	0,5	2
26.	250	200	50	20	65	65	*9800+100t*	600	2,5	1
27.	60	150	50	30	30	30	*6100+20t*	800	2	1
28.	50	200	20	50	-	30	*1000+40t*	1400	1	3

4.2 – jadval

1 – topshiriq	2 – topshiriq
	
3 – topshiriq	4 – topshiriq
	
5 – topshiriq	6 – topshiriq
	

7 – topshiriq	8 – topshiriq
	
9 – topshiriq	10 – topshiriq
	
11 – topshiriq	12 – topshiriq
	

13 – topshiriq



14 – topshiriq



15 – topshiriq



16 – topshiriq



17 – topshiriq



18 – topshiriq



19 – topshiriq	20 – topshiriq
	
21 – topshiriq	22 – topshiriq
	
23– topshiriq	24 – topshiriq
	

25 – topshiriq	26 – topshiriq
	
27 – topshiriq	28 – topshiriq
	
29– topshiriq	30 – topshiriq
	

II – BOB. MATERIALLAR QARSHILIGI

1 – Topshiriq. Cho'zilish – siqilishda statik aniq va noaniq masalalar

Masala.

1. Kesimlardagi kuchlarni aniqlang va ularning kesimlarini ikkita teng uchidan tanlang, $A_1/A_2=4$ maydonlarning berilgan nisbatini ta'minlang, ruxsat etilgan kuchlanish usuliga muvofiq holda, ruxsat etilgan kuchlanish $[\sigma]=160\ MPa$ bo'lishi kerak.

2. Kesishmalarning qabul qilingan o'lchamlarida ruxsat etilgan yuklanishlar usuliga asosan strukturaviy siljitish qobiliyatini aniqlang.

3. Ruxsat etilgan kuchlanish usulidan ruxsat etilgan yuklanishlar usuliga o'tish vaqtida olingan qo'shimcha quvvat zaxira foizini hisoblang. $F=3000\ kN$ deb olinsin.

Statik tenglamasi: $\sum m_0=0$

$$N_1\cdot 2a+N_2\cdot \cos 45^0\cdot 2a=F\cdot a, \qquad 2N_1+\sqrt{2}N_2=F$$

$$\Delta l_2/\Delta l_1=AA_1/BB_1=2ad\alpha/2a\sqrt{2}d\alpha=1/\sqrt{2}$$

$$\frac{N_1\cdot 2a}{E\cdot A_1}=\frac{N_2\cdot 2\sqrt{2}a}{E\cdot(4A_1)}\cdot\sqrt{2}, \qquad N_2=2N_1$$

$$N_1=F/2(1+\sqrt{2})=0{,}207\ F; \qquad N_2=2N_1=0{,}414\ F$$

$$A_1=\frac{N_1}{[\sigma]}=\frac{0{,}207\cdot 3\cdot 10^6}{160\cdot 10^6}=38{,}8\ sm^2$$

$$A_2=4A_1=4\cdot 38{,}8=155{,}2\ sm^2$$

$$A_2=\frac{N_1}{[\sigma]}=\frac{0{,}414\cdot 10^6}{16\cdot 10^6}=77{,}6\ sm^2; \qquad A_1=\frac{A_2}{4}=19{,}3\ sm^2$$





$[F_F]a=[\sigma]A_1\cdot 2a+[\sigma]A_2\cdot 2a\cdot\cos 45^0$,

$[F_F]=2[\sigma]\left(A_1+A_2\cdot\cos 45^0\right)=2\cdot 160\cdot 10^6(39{,}4+156{,}8\cdot 0{,}707)\cdot 10^{-4}=4808\ kN$

$k=\dfrac{[F_F]}{F}=\dfrac{4808}{3000}=1{,}6$ bu yerda 60%

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:




16
17
18
19
20
21
22
23
24
25
26
27
28
29
30

1.1 – jadval

Variant	1	2	3	4	5	6	7	8
F, kN	1000	600	800	400	700	500	900	600
A_2/A_1	1,2	1,8	1,5	2,0	1,4	1,6	2,2	1,3

Nazorat savollari:

1. Nisbiy cho'zilish nima va uning o'lchamlari qanday topiladi?
2. Guk qonuni nimadan iborat va uning matematik ifodasi qanday yoziladi?
3. Cho'zilish yoki siqilishdagi elastik moduli nimani xarakterlaydi?
4. Cho'zilish yoki siqilishda sterjen ko'ndalang kesimi bikrligi nima?
5. Sterjen bikrligi nima?
6. Puasson koeffitsiyenti nima?
7. Cho'zilish yoki siqilishda jism hajmi qanday o'zgaradi?

2 – Topshiriq. Sterjenning buralishi. Statik aniq va noaniq masalalar

Masala.

1. M momentni chiziq va kuchlanish va qattiqlikni hisoblashdan kerakli val diametrini aniqlang.

2. Valdagi shkivlarni ratsiyonal ravishda joylashtirish va bu holatda valning diametrini aniqlang. Belgilangan shkivlar bilan taqqoslanganda, bu holatda erishilgan moddiy tejash foyizini hisoblang.

3. Ikkala variantlar uchun ham buralish burchaklarining diagrammalarini tuzing, valning chap uchi qo'zg'almas deb oling.

Berilgan:

$P_A=90\ kVt,\ P_B=40\ kVt,\ P_C=30\ kVt,\ P_D=20\ kVt,\ \omega=25\ rad/s,$

$$[\tau]=30\ MPa,\ a=1\ m,\ [\theta]=\frac{4mrad}{m},\ G=80GPa$$

$$M_A=\frac{P_A}{\omega}=\frac{90}{25}=3,6\ kN\cdot m,\ M_B=\frac{P_B}{\omega}=\frac{40}{25}=1,6\ kN\cdot m,$$

$$M_C=\frac{P_C}{\omega}=\frac{30}{25}=1,2\ kN\cdot m,\ M_D=\frac{P_D}{\omega}=0,8\ kN\cdot m$$

Valning sxemasi va M_k momentini hisoblash. Shkivning eng katta burovchi momenti

$$M_K=\frac{P_A}{\omega}=\frac{90}{25}=3,6\ kN\cdot m$$

1 – variant

$$d_{pr}=\sqrt[3]{\frac{16M_k}{\pi[\tau]}}=\sqrt[3]{\frac{16\cdot 3,6\cdot 10^3}{\pi\cdot 80\cdot 10^6}}=100\ mm,$$

$$d_j=\sqrt[4]{\frac{32M_k}{\pi G[\theta]}}=\sqrt[4]{\frac{32\cdot 3,6\cdot 10^3}{\pi\cdot 80\cdot 10^9\cdot 4\cdot 10^{-3}}}=104\ mm$$

$$GI_{p1}=G\pi d_1^4/32=80\cdot 10^9\cdot\pi\cdot 105^4\cdot 10^{-12}/32=0,95\ MH\cdot m^2$$

2 – variant

$$d_{pr}=\sqrt[3]{\frac{16M_k}{\pi[\tau]}}=\sqrt[3]{\frac{16\cdot 2\cdot 10^3}{\pi\cdot 30\cdot 10^6}}=67\ mm,$$

$$d_j=\sqrt[4]{\frac{32M_k}{\pi G[\theta]}}=\sqrt[4]{\frac{32\cdot 2\cdot 10^3}{\pi\cdot 80\cdot 10^9\cdot 4\cdot 10^{-3}}}=89\ mm$$

$$GI_{p2}=G\pi d_2^4/32=80\cdot 10^9\cdot\pi\cdot 90^4\cdot 10^{-12}/32=0,52\ MN\cdot m^2$$

$$\mu=\frac{A_1-A_2}{A_1}\cdot 100\%=\frac{d_1^2-d_2^2}{d_1^2}\cdot 100\%=\frac{105^2-90^2}{105^2}\cdot 100\%=26,5\ \%$$

3. Buralish burchagi

$$\varphi=\varphi_0+\int_0^z\frac{M_k dz}{GI_p}=\varphi_0+\frac{\omega_M}{GI_p}$$

1 – variant

$$\varphi_B=\varphi_A+\frac{\omega_M}{GI_{P1}}=\frac{M_{AB}\cdot a}{GI_{P1}}=\frac{3,6\cdot 10^3\cdot 1}{0,95\cdot 10^6}=3,8\ mrad$$

$$\varphi_C=\varphi_B+\frac{M_{BC}\cdot a}{GI_{P1}}=3,8+\frac{2\cdot 10^3\cdot 1}{0,95\cdot 10^6}=5,9\ mrad$$

$$\varphi_D=\varphi_A+\frac{M_{AC}\cdot a}{GI_{P1}}=5,9+\frac{0,8\cdot 10^3\cdot 1}{0,95\cdot 10^6}=6,7\ mrad$$

2 – variant

$$\varphi_A=\varphi_B+\frac{M_{BA}\cdot a}{GI_{P2}}=-\frac{1,6\cdot10^3\cdot1}{0,52\cdot10^6}=-3,1\ mrad$$

$$\varphi_C=\varphi_A+\frac{M_{AC}\cdot a}{GI_{P2}}=-3,1+\frac{2\cdot10^3\cdot1}{0,52\cdot10^6}=0,8\ mrad$$

$$\varphi_D=\varphi_C+\frac{M_{CD}\cdot a}{GI_{P2}}=0,8+\frac{0,8\cdot10^3\cdot1}{0,52\cdot10^6}=2,3\ mrad$$

$P_A=90\ kVt,\ P_B=40\ kVt,\ P_C=30\ kVt,\ P_D=20\ kVt$



1 – variant



2 – variant



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:



4.3–jadval

Variant	1	2	3	4	5	6
M, kN·m	2	1	3	5	4	3
Variant	7	8	9	10	11	12
M, kN·m	3	4	2	4	6	4
Variant	13	14	15	16	17	18
M, kN·m	3	5	7	5	6	2
Variant	19	20	21	22	23	24
M, kN·m	3	5	6	8	5	3
Variant	25	26	27	28	29	30
M, kN·m	1	3	4	6	3	5

Nazorat savollar:

1. Burovchi moment epyurasi nima?
2. Burovchi moment tenglamasi qanday tuziladi? Bunda ishoralash tartibini tushuntiring.
3. Burovchi momentlar epyurasining to‘g‘riligini qanday tekshirish mumkin?
4. Kesimdagi ko‘ndalang (kesuvchi) kuch nima va u qanday topiladi?
5. Balka ixtiyoriy ko‘ndalang kesimidagi eguvchi moment tenglamasi qanday tuzilishini tushuntiring.

3 – Topshiriq. Tekis shakllarning geometrik xarakteristikasi

Masala.

1. Og‘irlik markazini aniqlash



3.1 - jadval

№	v_i	A_i	v_iA_i
1	12t	$360t^2$	$4320t^3$
2	14t	$-260t^2$	$-3640t^3$
3	24,5t	$31t^2$	$760t^3$
$\sum$		$131t^2$	$1440t^3$

$$v_C=\sum v_iA_i/\sum A_i=1440t^3/131t^2=11t$$

2. Asosiy o'qqa nisbatan inersiya momenti

3.2 - jadval

T/R	y_i	A_i	$I_x=\sum(I_\varepsilon+y_i^2A_i)$	
			I_x	$y_i^2A_i$
1	t	$360t^2$	$17280t^4$	$360t^4$
2	3t	$-260t^2$	$-866,7t^4$	$-2340t^4$
3	13,5t	$31t^2$	$2,6t^4$	$5650t^4$
			$8616t^4$	$3670t^4$

$y_i=v_i-v_c$

$$I_{\varepsilon 1}=\frac{b_1h_1^3}{12}=\frac{15t(24t)^3}{12}=$$

$$=17280t^4$$

$$I_{\varepsilon 2}=-\frac{b_2h_2^3}{12}=\frac{13t(20t)^3}{12}=$$

$$=-8666,7t^4$$

Σ	$12286t^4$	$I_{c3}=-\frac{b_3h_3^3}{12}=\frac{31t(t)^3}{12}=2,6t^4$

3. Qarshilik momenti

$W_1=I_x/h_1=12286t^4/11t=1117t^3$

$W_2=I_x/h_2=12286t^4/14t=878t^3$

4. Balka kesimini ajratish

$$t_{siq}\geq\sqrt[3]{\frac{M_{siq}}{117[\sigma_{siq}]}}=\sqrt[3]{\frac{28,8\cdot10^3}{1117\cdot50\cdot10^6}}=8\ mm$$

$$t_{siq}\geq\sqrt[3]{\frac{M_{siq}}{878[\sigma_{siq}]}}=\sqrt[3]{\frac{28,8\cdot10^3}{878\cdot120\cdot10^6}}=6,5\ mm$$

$$\sigma_{max}=\frac{M_B}{W_2}=\frac{2qa^2}{W_2}=\frac{2\cdot18\cdot0,8^2\cdot10^3}{878\cdot8^3\cdot10^{-9}}=51,3\ MPa$$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:




4
2t
1,5t
1,5t
4t
t
t
4t
5
3t
t
2t
2t
4t
6
3t
4t
2t
7
4t
t
3t
4t
6t
8
t t t
5t
2t
t
t
3t
t
9
t t t
5t
2t
t
2t 2t 2t
10
t
8t
2t
2t
t
8t
t
11
10t
4t
4
3 1 t
6t
2t
4t
12
8t
4t
8t
t
4t
t
13
t t
8t
4t
8t
14
t
8t
2t
2t
4t 2t 4t
15
t t
4t
t
t
2t t 2t

Nazorat savollari:

1. Tekis shakl yuzining statik momenti deb nimaga aytiladi? Uning o'lchov birligi nima?
2. Tekis shakl yuzining statik momentlari qanday o'qlarga nisbatan nolga teng bo'ladi?
3. Murakkab shakl yuzining statik momenti qanday formula bilan topiladi?
4. Murakkab shakl yuzining og'irlik markazining koordinatalari qanday formulalar orqali topiladi?
5. Tekis shakl yuzining ekvatorial va polyar (qutb) inertsiya momentlari deb nimaga aytiladi va ular nima bilan o'lchanadi?
6. Tekis shakl yuzalarining markazdan qochma inertsiya momentlari deb nimaga aytiladi va u qanday qiymatlarga ega bo'lishi mumkin?

4 – Topshiriq. Tekis ramalar uchun eguvchi moment epyuralarini qurish

Masala. Balkaning ko'ndalang kesimini aniqlash kerak. $[\sigma]=160\ MPa$, $[\tau]=80\ MPa$, $M=6\ kN\cdot m$, $q=4\ kN/m$, $h=2b$ va $a=1m$ ga teng.

$$\sum m_B = -M+R_D\cdot 3a=0;$$

$$R_D=\frac{M}{3a}=2\ [kN].$$

$$\sum m_D = q\cdot 2a\cdot 3a-M-R_B\cdot 3a=0;$$

$$R_B=\frac{q\cdot 6a^2-M}{3a}=6\ [kN].$$

$$\sum Y = -q\cdot 2a+R_B+R_D=-4\cdot 2\cdot 1+6+2=0.$$

Uchastka AB $(0\le x_1\le a)$:

$$Q_y(x_1)=-q\cdot x_1;$$

$$Q_y(x_{1\ 0})=0;$$

$$Q_y(x_{1\ 0})=-qa=-4\ kN;$$

$$M_z(x_1)=-q\cdot\frac{x_1^2}{2};$$

$M_z(x_{1-0})=0;\quad M_z(x_{1-0})=-q\frac{a^2}{2}=-2\ kN\cdot m.$



Uchastka *BC* $(0\le x_2\le a)$:

$Q_y(x_2)=-q(a+x_2)+R_B;$

$Q_y(x_{2-0})=-qa+R_B=2\ kN;$

$Q_y(x_{2-0})=-q\cdot 2a+R_B=-2\ kN;$

$M_z(x_{2-0})=-q\frac{(a+x_2)^2}{2}+M+R_B\cdot x_2;$

$M_z(x_{2-0})=-q\frac{a^2}{2}+M=4\ kN\cdot m;$

$M_z(x_{2-a})=-q\frac{4a^2}{2}+M+R_Ba=4\ kN\cdot m.$

$-q(a+x_{20})+R_B=0$

$x_{20}=\frac{-qa+R_B}{q}=0,5\ [m].$

$M_z(x_2=x_{20})=-q\frac{(a+x_{20})^2}{2}+M+R_B\cdot x_{20}=4,5\ kN\cdot m.$

Uchastka *DC* $(0\le x_3\le 2a)$:

$Q_y(x_3)=-R_D=-2\ kN;$

$M_z(x_3)=R_D\cdot x_3;$

$M_z(x_3)=0;$

$M_z(x_{3=2a})=R_D\cdot 2a=4\ kN\cdot m.$

$M_{his}=M_{max}=4,5\ kN\cdot m.$

$$W_z=\frac{bh^2}{6}$$

$$W_z=\frac{2}{3}b^3$$

$$W_z\geq\frac{M_{his}}{[\sigma]}$$

$$b\geq\sqrt[3]{\frac{3M_{his}}{2[\sigma]}}=\sqrt[3]{\frac{3\cdot 4,5}{2\cdot 160\cdot 10^3}}\approx 0,035\ m.$$

$$\tau_{max}=\frac{3}{2}\cdot\frac{Q_y}{bh}=2,45\ MPa<[\tau]$$

Mustaqil bajarish uchun vazifalar:





4.1– jadval

№	$F=Kqa$	$M=Kqa^2$	q, kN/m	a, m	$l/[f]$
1.	3	1	12	1	500
2.	2	3	20	0,8	600
3.	1	4	16	1,2	800
4.	3	2	18	1	1000

5.	2	3	12	1	500
6.	3	4	12	0,8	600
7.	5	3	13	1,2	800
8.	6	2	14	1	1000
9.	7	3	15	1	500
10.	1	4	16	0,8	600
11.	3	5	13	1,2	800
12.	5	3	12	1	1000
13.	4	6	14	1	500
14.	1	5	15	0,8	600
15.	2	3	16	1,2	800
16.	3	4	17	1	1000
17.	2	2	18	1	500
18.	1	3	19	0,8	600
19.	6	5	12	1,2	200
20.	4	4	13	1	300
21.	3	3	15	1	700
22.	4	4	12	0,8	800
23.	2	3	15	1,2	1200
24.	1	4	17	1	1000
25.	1	2	16	1	600
26.	2	1	17	0,8	200
27.	3	4	12	1,2	300
28.	4	5	14	1	700
29.	5	6	16	1	800
30.	6	4	18	0,8	1200

Nazorat savollar:

1. Burovchi moment epyurasi nima?
2. Burovchi moment tenglamasi qanday tuziladi? Bunda ishoralash tartibini tushuntiring.
3. Burovchi momentlar epyurasining to‘g‘riligini qanday tekshirish mumkin?
4. Kesimdagi ko‘ndalang (kesuvchi) kuch nima va u qanday topiladi?

III – BOB. MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASI

Kurs loyihasi (ishi) topshiriqlarini bajarish tartibi

Kurs loyiha (ishi) 3 ta A2 formatli qog'ozdagi chizmalar va hisob – tushintiruv yozuvidan iborat bo'lib, talaba topshiriqni mustaqil bajarishi uchun biriktirilgan o'qituvchi tomonidan beriladi. Talabalar kurs loyihasi (ishi) topshiriqlarini o'zlarining guruh jurnaliga mos kelgan raqam bo'yicha oladilar.

Kurs loyiha (ishi) quyidagi 3 ta topshiriq asosida bajarilishi kerak: Loyiha (ish)ning chizmalari A2 format (594x420 mm) bo'lgan varaq (vatman) da bajariladi. Bunda:

1 – topshiriq: Tekis richag – sharnirli mexanizmning strukturasi, kinematikasi va kinetostatikasini tekshirish;

2 – topshiriq: Tishli reduktorni loyihalash va uni tekshirish,

3 – topshiriq: Kulachokli mexanizmni loyihalash ishlari bajariladi.

Kurs loyihasi (ishi)ni hisob – tushuntiruv qismi A4 formatli (210x297 mm) varaqda bajarilishi lozim. Yozuv varaqning 1 – tomoniga chiroyli va tushunarli qilib yoziladi. Tikish uchun chap tomondan 30 mm, tepadan 20 mm, pastdan 20 mm va o'ngdan 15 mm dan joy qoldiriladi. Tushintiruv yozuviga qisqartirishlar kiritish mumkin emas, faqatgina Davlat standarti bo'yicha ruxsat etilgan qisqartirishlar bo'lishi mumkin. Yozuvda qabul qilingan formulalar, qabul qilingan kattaliklar, koeffitsiyentlar, standartlar qaysi adabiyot va ma'lumotnomadan olingani ko'rsatib o'tilishi kerak.

1 – Topshiriq. Richagli mexanizm kinematik tahili

Mexanizmning bo'g'inlari nuqtalarining siljishi, tezligi va tezlanishini aniqlashning grafik va grafo – analitik (tezlik va tezlanish rejalari) usullari bilan tanishamiz. Mexanizmning turi, bo'g'inlarining uzunligi va aylangichni aylanish chastotasi berilgan.



$l_{AB}=20$ *mm*, $l_{DE}=60$ *mm*, $l_{BC}=100$ *mm*, $l_{EF}=200$*mm*, $l_{BS}=50$ *mm*, $\Pi_1=300$ *ayl/min*, $l_{CD}=120$ *mm*.

Vazifa quyidagi tartibda bajariladi

1.1. Mexanizmning tuzulishini tahlil qilish

Mexanizm tarkibidagi bo'g'inlarni va turli sinfli kinematik juftlar sonlariga qarab uning erkinlik darajasi hisoblanadi: $W=3n-2P_5=3\cdot5-2\cdot7=1$

Bo'g'inlar: 1 – aylangich, 2 – shatun, 3 – chayqalgich, 4 – shatun, 5 – sudralgich ($n=5$).

Kinematik juftlar soni: $P_5(A, B, C, E, D, F,F,)=7$ n va P_5 qiymatlari.

1.2. Nuqtaning traektoriyalarini aniqlash

Mexanizmning masshtablari aniqlanadi:

$$\mu_l=\frac{l_{AB}}{AB}=\frac{20}{40}=0,5\ \frac{mm}{mm}$$

Bu yerda: l_{AB} – aylangichni berilgan uzunligi, *mm*

AB – aylangichni chizmadagi uzunligi, *mm*

AB aylangichni chizmadagi uzunligi qabul qilinadi va uning miqdoriga qarab chizmani kattaroq yoki kichikroq masshtabda chizish mumkin. Masshtab tanlangandan so'ng mexanizmni qolgan bo'g'inlarini chizmadagi uzunliklari aniqlanadi. Masalan:

$$BC=\frac{l_{BC}}{\mu_e},\ CD=\frac{l_{CD}}{\mu_e}$$

Bu uning "Harakatsiz" holati chiziladi. "Harakatsiz" holat deganda chayqalgichni tebranma harakatidagi chetki holati, ya'ni C nuqtani tezligi nolga teng bo'lgan holat tushuniladi. U quyidagicha quriladi:

a) A va D tayanch nuqtalari bilan tutashtirib mexanizmni AB_0C_0D "Harakatsiz" holati chiziladi.

b) aylangichni B nuqtasi traektoriyasi – aylana chiziladi va B_0 nuqtadan boshlab bir nechta, masalan 12 ga teng bo'laklarga bo'linadi. Markazi B_1, B_2, ..., B_{12} nuqtalarda B_0C_0 shatun uzunligiga teng radiusda yoylar chizilib C nuqta yoyi bilan kesishgan C_1, C_2, ..., C_{12} nuqtalar aniqlanadi. Demak C nuqtalarning holatlari "Kesishtirish" usuli bilan aniqlanadi. Shatunni S_0, S_1, ..., S_{12} nuqtalari holatlari B_0C_0, B_1C_1, ..., $B_{12}C_{12}$ oralig'ida tutashtiriladi. Chayqalgichni C_1D, C_2D, ..., C12D holatlari chizilib tegishli E_0, E_1, ..., E_{12} nuqtalar belgilanadi. Sudralgich F nuqtasini traektoriya chizig'ida 4 – shatunni EF uzunligi orqali kesishtirish usulida F_0, F_1, ..., F_{12} nuqtalarning holati aniqlanadi. F va E nuqtalari tutashtirilib 4 – shatunning 12 ta holati va F nuqtaning harakat traektoriyasi aniqlanadi (1.1 – rasm).



1.1 – rasm. Nuqtaning 12 ta holatidagi kinematik sxemasi

1.3. Nuqtalarning yo'l yoki masofa grafiklarini qurish va ularning grafik differensiyal tezlik va tezlanishlarini aniqlash

Mexanizmda aylangich bir marta aylanganda bo'g'inlarning nuqtalari ilgarilanma – qaytma (E va C nuqtalar) va ilgarilanma (S nuqta) harakatlanadi. Bunda C va E nuqtalarning masofalari oshib borib, so'ngra nuqta orqali harakatlanib masofasi kamaya boshlaydi. C nuqtani $S - t$ masofa grafigidan differensiyallashni vatarlar sulini qo'llab, S nuqtani yo'l grafigidan esa ordinata ortirmalarini o'lchash yo'li bilan tezlik $(v - t)$ va tezlanishlar $(a - t)$ diagrammalari quriladi.

1.4. Tezlik rejalarini qurish

Mexanizmni 12 ta holatidan biri tanlanib kinematik sxemasi alohida chiziladi (1.2 – rasm).





1.2 – rasm. Tezlik rejasini qurish.

Tezlik rejasi quyidagi tartibda bajariladi:

a) B nuqtaning tezlik miqdori hisoblanadi: $v_B=\omega_1 l_{AB}=\pi n/30 \cdot l_{AB}$, *m/sek*

l_{AB} – aylangich uzunligi, metrda qabul qilinadi. v_B – tezlik vektori aylangichni AB holatiga tik yo'naladi. Ixtiyoriy P – qutb nuqtasi tanlanib AB bo'g'inga tik chiziq o'tkaziladi. P_B kesma uzunligi ixtiyoriy qabul qilinadi.

b) Tezlik rejasi masshtabi hisoblanadi:

$$\mu_v=\frac{v_B}{P_B} \quad m/s \cdot mm$$

c) C nuqtaning tezlik vektorini aniqlash uchun vektor tenglamalar tizimi tuzuladi va rejada yechiladi: $\bar{v}_C=\bar{v}_B+\bar{v}_{CB}$

d) S nuqtaning tezlik vektori o'xshashlik teoremasidan quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{BC}{BS}=\frac{BC}{BS}, \quad BS=\frac{BS\cdot BC}{BC}\ mm$$

e) E nuqtaning tezlik vektori o'xshashlik teoremasidan quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{DC}{DE}=\frac{Pc}{Pe}, \quad Pe=\frac{DE\cdot Pc}{DC}\ mm$$

f) F nuqtaning tezlik vektorini aniqlash uchun vektor tenglamalar tizimi tuzuladi va rejada yechiladi: $\overline{v}_F=\overline{v}_E+\overline{v}_{FE}$

g) Reja masshtabidan foydalanib absolyut va nisbiy tezliklar hisoblanadi:

$v_C=\mu_v Pc$

$v_E=\mu_v Pe$

$v_F=\mu_v Pe$

$v_{CB}=\mu_v 6c$

$v_{FE}=\mu_v fe$

j) Bo'g'inlarning burchak tezliklari miqdorlari aniqlanib yo'nalishlari kinematik sxemada belgilanadi.

2 – shatun burchak tezligi:

$$\omega_2=\frac{v_{CB}}{l_{CB}},\ 1/s$$

3 – shatun burchak tezligi:

$$\omega_3=\frac{v_{CD}}{l_{CD}}=\frac{v_C}{l_{CD}},\ 1/s$$

4 – shatun burchak tezligi:

$$\omega_4=\frac{v_{FE}}{l_{FE}},\ 1/s$$

1.5. Tezlanish rejasini qurish





1.3 – rasm. Tezlanish rejasini qurish.

Vazifani bajarish tartibi

a) B nuqtani normal tezlanishini hisoblanadi (E_1=0 bo'lgani uchun, $a_B^\tau=0$)

$$a_B^n=\frac{v_B^2}{l_{AB}},\quad m/s^2$$

b) Reja masshtabi aniqlanadi:

$$\mu_a=\frac{\overline{a}_B^n}{\Pi_a},\quad m/s^2\cdot mm$$

c) C nuqtaning tezlanish vektorini aniqlash uchun vektor tenglamalar tizimi tuziladi va rejada C nuqta absolyut tezlanish vektori quriladi.

$$\overline{a}_C=\overline{a}_B+\overline{a}_{CB}^n+\overline{a}_{CB}^\tau$$

$$\overline{a}_C=\overline{a}_D+\overline{a}_{CD}^n+\overline{a}_{CD}^\tau$$

$$a_{CB}=\frac{v_{CB}^2}{l_{CB}},\ m/s^2$$

$$a_{CD}=\frac{v_{CD}^2}{l_{CD}},\ m/s^2$$

$$\Pi_{CB}=\frac{a_{CB}^n}{\mu_a},\quad mm$$

$$\Pi_{CD}=\frac{a_{CD}^n}{\mu_a},\quad mm$$

d) S nuqtani absolyut tezlanish vektori o'xshashlik teoremasidan aniqlanadi:

$$\frac{BC}{BS}=\frac{\text{вс}}{\text{вs}},\qquad \text{вs}=\frac{BS\cdot\text{вс}}{BC},\quad mm$$

Bu yerda *вс* – tezlanish rejasidagi kesma uzunligi.

e) E nuqtani absolyut tezlanish vektori o'xshashlik teoremasidan aniqlanadi:

$$\frac{DC}{DE}=\frac{\Pi c}{\Pi e},\qquad \Pi e=\frac{DE\cdot\Pi c}{DC},\quad mm$$

f) F nuqtaning tezlanish vektorini aniqlash uchun vektor tenglamalar tizimi tuzuladi va rejada yechiladi:

$$\bar{a}_F=\bar{a}_E+\bar{a}^n_{FE}+\bar{a}^\tau_{FE}$$

$$a^n_{FE}=\frac{v^2_{FE}}{l_{FE}},\quad m/s^2$$

$$\Pi_{FE}=\frac{a^n_{FE}}{\mu_a},\quad mm$$

j) Nuqtalarning absolyut va nisbiy tezlanishlari hisoblanadi:

$$a_C=\mu_a\Pi c,\quad m/s^2$$

$$a_E=\mu_a\Pi e,\quad m/s^2$$

$$a_F=\mu_a\Pi f,\quad m/s^2$$

$$a^\tau_{CB}=\mu_a\tau_{CB},\quad m/s^2$$

$$a^\tau_{CD}=\mu_a\tau_{CD},\quad m/s^2$$

$$a^\tau_{FE}=\mu_a\tau_{FE},\quad m/s^2$$

Πe, Πc, Πf, τ_{CB}, τ_{CD}, τ_{FE} kesmalar rejadan o'lchanadi.

k) Bo'g'inlarning burchak tezlanishlari miqdorlari aniqlanib yo'nalishlari kinematik sxemada belgilanadi.

2 – shatun burchak tezligi:

$$\bar{\varepsilon}_2=\frac{\bar{a}_{CB}}{l_{CB}}\quad 1/s^2$$

3 – shatun burchak tezligi:

$$\bar{\varepsilon}_3=\frac{\bar{a}_{CD}}{l_{CD}}\quad 1/s^2$$

4 – shatun burchak tezligi:

$$\bar{\varepsilon}_4=\frac{\bar{a}_{FE}}{l_{FE}}\quad 1/s^2$$

2 – Topshiriq. Tishli reduktorni loyihalash va uni tekshirish

Berilgan oddiy va planetar pog'analardan iborat reduktorlarning kinematikasi hisoblanadi. Tishli g'ildiraklar 4 va 5 dan tuzilgan oddiy uzatmaning evolventaviy profillari chiziladi. Sxemalarda ko'rsatilgan markaziy g'ildirak 1, 3 lar satillit *2(2-2')* va vodilo *N* planetar uzatmani, tishli g'ildiraklar 4, 5 esa oddiy uzatmani tashkil qiladi.

Quyidagi parametrlar beriladi: Yetaklanuvchi zveno g'ildirak 5 ning aylanish soni n_5; planetar uzatma g'ildiraklari Z_1, Z_2, $Z_{2'}$, Z_3 tishlarining soni; oddiy uzatma g'ildiraklari orasidagi masofa a_w va uning uzatish soni U_{45}. Barcha g'ildiraklarning ilashish moduli m bir–biriga teng qilib olingan.

Talab qilinadi:

1) Planetar uzatma va reduktorning uzatish sonlari U_r va U_l ni aniqlash;

2) Elektr dvigatelning (yetaklovchi g'ildirakning) aylanish chastotasi n_1 ni aniqlash;

3) Oddiy uzatma g'ildiraklarining tishlari sonini hisoblash;

4) Reduktor g'ildiraklarining boshlang'ich aylanasi va vadilo radiuslarini hisoblab topish, uning sxemasini μ_l masshtabda chizish;

5) Reduktorning μ_v masshtabda tezliklar rejasini qurib, g'ildiraklarning tezliklarini topish;

6) G'ildiraklar 4 va 5 ning asosiy geometrik parametrlari ilashish qadami R, bo'lish aylanasi bo'ylab tishning qalinligi s, boshlang'ich r_a va r_b aylanalar radiusi, tish kallagi r_a hamda tish oyog'i r_f bo'ylab o'tkazilgan aylanalarning radiuslarini hisoblash;

7) Bir juft g'ildirak tishlari ilashmasini chizish, bunda uzunlik masshtabini shunday tanlanadiki, tishning h balandligi *30 mm* dan kam bo'lmasin, har bir g'ildirak uchun kamida 3 ta tishning profili chizib ko'rsatiladi.

Misol. Berilgan: $Z_1=20$; $Z_2=21$; $Z_{2'}=20$; $Z_3=62$; $U_{45}=2$; $a_w=150$ *mm*; $m=5$; $n_5=122$ *ayl/min*.



$U_{loy}=U_r+U_{yu}$

$U_{yu}=U_{45}$

$U_r=U^3_{1H}=1-\frac{z_1 z_2}{z_1 z_2'}$

$V_A=\omega_1 \cdot r_1$

$\omega_1=\frac{\pi n_1}{30}$

Tishli planetar mexanizmning uzatish soni quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$U^1_{H3}=1-\frac{z_2 \cdot z_3}{z_1 \cdot z_2'}=1-\frac{21 \cdot 62}{20 \cdot 20}=-2,25$$

Reduktorning umumiy uzatish soni planetar va oddiy uzatmalar uzatish sonlarining ko'paytmasiga teng:

$$U_{loy}=U_r \cdot U_{yu}=U^3_{1H} \cdot U_{45}=-2,25 \cdot 2=4,5$$

Elektrik dvigatel valining aylanish soni quyidagicha aniqlanadi:

$$n_1=U_{loy} \cdot n_5=4,5 \cdot 122=549 \ ayl/min$$

Oddiy uzatma g'ildiraklarining tishlari sonini aniqlaymiz:

$$z_4=\frac{2 \cdot a_w}{m(1+U_{45})}=\frac{2 \cdot 150}{5(1+2)}=20$$

$$z_5=U_{45} \cdot z_4=2 \cdot 20=40$$

Reduktor sxemasini chizamiz (2.1 – shakl). Buning uchun tishli g'ildiraklarning bo'lish aylanasi hamda vodilo radiuslarini aniqlaymiz. z_1 g'ildirakning bo'lish aylanasi radiusi:

$$r_1=\frac{mz_1}{2}=\frac{5\cdot 20}{2}=50\ mm$$

z_2 g'ildirakning bo'lish aylanasi radiusi:

$$r_2=\frac{mz_2}{2}=\frac{5\cdot 21}{2}=52,5\ mm$$

z_2' g'ildirakning bo'lish aylanasi radiusi:

$$r_2'=\frac{mz_2}{2}=\frac{5\cdot 20}{2}=50\ mm$$

z_3 g'ildirakning bo'lish aylanasi radiusi:

$$r_3=\frac{mz_3}{2}=\frac{5\cdot 62}{2}=155\ mm$$

vodila N ning radiusi:

$$R_H=r_1+r_2=50+52,5=102,5\ mm$$

z_4 g'ildirakning bo'lish aylanasi radiusi:

$$r_4=\frac{mz_4}{2}=\frac{5\cdot 20}{2}=50\ mm$$

z_5 g'ildirakning bo'lish aylanasi radiusi:

$$r_5=\frac{mz_5}{2}=\frac{5\cdot 40}{2}=100\ mm$$

Reduktor sxemasining uzunlik masshtabi koeffitsiyenti μ_l ni tanlaymiz:

$$\mu_l=\frac{r_1}{r_1}=\frac{0,05\ m}{50\ mm}=0,001\ m/mm$$

Ikki pog'onali ichki ilashmali planetar va bir pog'onali oddiy tishli ilashmadan iborat reduktorning g'ildiraklari tezliklarini L.Smirnov usuli bilan topish.

Buning uchun berilgan n_1 orqali ω_1 va birinchi g'ildirakning A nuqtasi tezligi V_A ni ixtiyoriy vektor kattalikda, μ_v mashtabda qo'yamiz. v_A nyqtani O_1 markaz bilan birlashtirib 1 – g'ildirakni tezliklar planini quramiz. O_2 ikkinchi g'ildirakni va 4 - g'ildirakni S nuqtasini tezlik vektorlarini $v_A - O_1$ chiziq bilan uchrashtirib v_H

va v_C tezliklarni topamiz. v_C tezlik vektorini O_5 markaz bilan birlashtirib 5 – g'ildirak tezlik planini quramiz. v_C tezlik vektorini V nuqta bilan birlashtirib z_2' g'ildirakni tezliklar plani topiladi. Tezliklarni skolyar miqdorini topish uchun, istalgan nuqtani vektor kattaligini o'lchab olib μ_v masshtabga ko'paytiramiz.

2.1. Oddiy uzatma 4 va 5 g'ildiraklarining asosiy geometrik parametrlarini hisoblaymiz

Asosiy aylanalarning radiuslari:

$r_{B_4}=r_4 \cdot cos\alpha=50 \cdot cos20^0=47\ mm$

$r_{B_5}=r_5 \cdot cos\alpha=100 \cdot cos20^0=94\ mm$

G'ildirak tishlarining balandligi:

$h_4=h_5=2,25 \cdot m=2,25 \cdot 5=11,25\ mm$

Tish kallagi balandligi:

$h_{a4}=h_{a5}=h_a \cdot m=1 \cdot 5=5\ mm$

Tish oyog'i balandligi:

$h_{f4}=h_{f5}=1,25 \cdot m=1,25 \cdot 5=6,25\ mm$

Ilashmaning boshlang'ich aylana yoyi bo'yicha qadami:

$p=\pi \cdot m=3,14 \cdot 5=15,7\ mm$

Tishning boshlang'ich aylana yoyi bo'yicha qalinligi:

$S_4=S_5=0,5 \cdot p=0,5 \cdot 15,7=7,85\ mm$

Ikki tishning boshlang'ich aylana yoyi bo'yicha oralig'i:

$e_4=e_5=0,5 \cdot p=0,5 \cdot 15,7=7,85\ mm$

G'ildirak tishlarining chiqiqlari aylanasi radiuslari:

$r_{a_4}=r_4+h_{a_4}=50+5=55\ mm$

$r_{a_5}=r_5+h_{a_5}=100+5=105\ mm$

G'ildirak tishlarining botiqligi aylanasi radiuslari:

$r_{f_4}=r_4-h_{f_4}=50-6,25=43,75\ mm$

$r_{f_5}=r_5-h_{f_5}=100-6,25=93,75\ mm$

Galtelning yumaloqlanish radiusi:

$\rho_f=0,3\cdot m=0,3\cdot 5=1,5\ mm$

2.2. Tashqi ilashmali evolventa profilli g'ildirak tishini yasash

1. Chizmaning uzunlik masshtabi μ ni tanlaymiz. Bunda tishning chizmadagi balandligi $h>30\ mm$ bo'lishi kerak:

$$\mu_l=\frac{h}{\overline{h}}=\frac{0,01125}{30}=0,000375\ m/mm$$

Siz chizmangizda h=30 mm qilib olasiz.

2. G'ildiraklarning O_4 va O_5 markazlari oralig'ini (2.2 – shakl) topamiz:

$$\overline{a_w}=\frac{a_w}{\mu_l}=\frac{0,150}{0,000375}=400\ mm$$

3. O_4 va O_5 markazlar to'g'ri chiziq bilan tutashtiriladi, bu markazlardan

$$\overline{r_4}=\frac{r_4}{\mu_l}=\frac{0,050}{0,000375}=133,3\ mm$$

$$\overline{r_5}=\frac{r_5}{\mu_l}=\frac{0,100}{0,000375}=266,6\ mm$$

radiuslar bilan bo'lish aylanalari chiziladi.

4. Ikki aylananing urinish nuqtasi R dan (ilashish qutbidan) bo'lish aylanalariga urinma $\tau\tau$ chiziq o'tkaziladi. U O_4 va O_6 markazlarni tutashtiruvchi chiziqqa tik bo'ladi.

5. O_4 va O_5 markazlardan

$$\overline{r_{b_4}}=\frac{r_{b_4}}{\mu_l}=\frac{0,047}{0,000375}=125,3\ mm$$

$$\overline{r_{b_5}}=\frac{r_{b_5}}{\mu_l}=\frac{0,094}{0,000375}=250,6\ mm$$

radiuslar bilan asosiy aylanalar chiziladi.

6. Qutb nuqtasi R dan τ-τ urinmaga $\alpha=20^o a$ burchak ostida asosiy aylanalarga umumiy bo'lgan urinma chiziq $N-N$ o'tkaziladi. Bu urinma chiziq asosiy aylanala $\overline{r_{b_4}}$, $\overline{r_{b_5}}$ da urinish nuqtalari A va B ni beradi. Bunda AB kesma nazariy ilashish chiziq bo'ladi.

7. G'ildirakning O_4 va O_5 markazlaridan

$$\overline{r_{a_4}} = \frac{r_{a_4}}{\mu_l} = \frac{0,055}{0,000375} = 146,6\ mm$$

$$\overline{r_{a_5}} = \frac{r_{a_5}}{\mu_l} = \frac{0,105}{0,000375} = 280\ mm$$

radiuslar bilan g'ildirak tishlarining chiqiqlik aylanasi radiuslari,

$$\overline{r_{f_4}} = \frac{r_{f_4}}{\mu_l} = \frac{0,04375}{0,000375} = 116,6\ mm$$

$$\overline{r_{f_5}} = \frac{r_{f_5}}{\mu_l} = \frac{0,09375}{0,000375} = 250\ mm$$

radiuslar bilan esa g'ildirak tishlarining botiqlari aylanasi chiziladi.

8. Ilashish chiziqi $N - N$ ni ikki g'ildirakning asosiy aylanalarida dumalatib, qutb nuqtasi R dan o'tuvchi evolventa profili chiziladi.

Tish profili chizishning grafikaviy usulini ko'rib chiqamiz.



2.2 – rasm

2.3. Tishning profilini grafikaviy usulda chizish

1. Chizmadagi $\overline{AP}$ kesmani teng qismlarga bo'lamiz. Masalan, $\overline{AP}$ kesmani to'rtta teng qismga bo'lib, $\overline{P3}$, $\overline{32}$, $\overline{21}$, $\overline{1A}$ kesmalarni olamiz. Ilashish chizig'ining davomida $\overline{A5}$, $\overline{56}$ teng kesmalarni ham belgilaymiz

2. A nuqtadan boshlab, asosiy aylanada bu kesmalarga teng $\overline{A1}=\overline{A1'}$, $\overline{A2}=\overline{A2'}$, $\overline{A3}=\overline{A3'}$ shuningdek, yoylarni belgilaymiz.

3. Belgilangan $1''$, $2''$, $3''$, $4''$, $5''$, $6''$ nuqtalarni g'ildirakning markazi O_4 bilan tutashtiramiz. Bu nuqtalardan radius chiziqlariga tik, ya'ni asosiy aylanaga urinma chiziqlar o'tkazamiz.

4. Evolventaning evolventadan o'tkazilgan normal chiziqning uzunligi asosiy aylanasi "yoyining uzunligiga teng" degan xossasiga asoslanib, evolventa egri chizig'ini chizamiz. Buning uchun birinchi urinma chiziqda bitta $1'$— $1''$ kesma, ikkinchi urinma chiziqning 2 nuqtasidan $2'$—$2''$ kesma, uchinchi urinmaning 3 nuqtasidan uchta $3'$—$3''$ kesma belgilaymiz va hokazo.

5. Belgilangan $1''$, $2''$, $3''$, $4''$, $5''$, $6''$ nuqtalarni ketma – ket lekayla bilan (silliq chiziq bilan) tutashtirib, evolventa chiziqini hosil qilamiz. Ikkinchi g'ildirak tishining profilini ham xuddi shu tarzda chizamiz. Chizish paytida tish botiqligi aylanasining radiusi r_f asosiy aylana radiusi r_b ga teng, undan katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Bu hol g'ildirak tishlarining soniga bog'liq. Agar $r_f \geq r_b$ bo'lsa, tish botiqligining aylanasi evolventa bilan kesishadi. Agar $r_f \leq r_b$ bo'lsa, tish botiqligining aylanasi evolventa bilan kesishmaydi.

Tish botiqligi aylanasining katta kichikligidan qat'iy nazar, tish profilining evolventa qismi bilan tish botiqligi aylanasini birlashtiruvchi qismda burilish radiusi bo'lishi kerak.

$$\rho_f = \frac{P_f}{\mu_1} = \frac{0,0015}{0,00035} = 4\ mm$$

Boshlang'ich aylana yoyi bo'yicha tishning qalinligi

$$\bar{S} = \frac{S}{\mu_1} = \frac{0,00785}{0,000375} = 20,9\ mm$$

ni belgilaymiz va uni teng ikki qismga bo'lamiz. Uni g'ildirak markazi O_4 bilan tutashtirib, tishning simmetriya o'qini hosil qilamiz. Simmetrik proeksiyalash usulida tishning ikkinchi evolventa profilini chizamiz.

7. Tishning boshlang'ich aylana yoyi bo'yicha qadami

$$\bar{P} = \frac{P}{\mu_1} = \frac{0,0157}{0,000375} = 41,8\ mm$$

ga teng oraliqda qo‘shni tishlarnint simmetriya o‘qlarini belgilaymiz va tishning profillarini chizamiz.

8. Ikkinchi g‘ildirak tishning profilini ham chizamiz. Har bir g‘ildirakning uchtadan tishi chiziladi.

2.4. Tishli ilashmaning sirpanish epyurasini qurish

Tishli ilashmalarni sirpanish koeffitsenti quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$\lambda_1 = 1 + y_{4.5} - \frac{L}{L-x} \cdot y_{4.5}$$

$$\lambda_2 = 1 + y_{5.4} - \frac{L}{L-x} \cdot y_{5.4}$$

bu yerda: λ_1, λ_2- tishli ilashmaning sirpanish koeffitsiyenti;

$y_{4.5}$- 4 – g‘ildirakning 5 – g‘ildirakka uzatish soni, bu qiymat hammaning variantida berilgan bo‘ladi.

$y_{5.4}$- 5 – g‘ildirakning 4 – g‘ildirakka uzatish soni, bu qiymat quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$y_{5.4} = \frac{z_4}{z_5}$$

L – nazariy ilashish chiziqi $\overline{AB}$ kesmaga teng

$X - A$ nuqtadan asosiy aylanagacha bo‘lgan masofa

Sirpanish epyurasini quyidagicha quriladi AB nazariy ilashish chizig‘ini O_5 markaz tamon parallel ko‘chiriladi hamda A, B va R nuqtalardan nazariy chiziqga nisbatan perpendikulyar chizi qlar o‘tkaziladi. Parallel ko‘chirilgan chiziq bilan perpendikulyar o‘tkazilgan chiziqlarni kesishish nuqtalarini A, B va R hariflari bilan belgilanadi. A nuqtadan R uqtagacha bo‘lgan masofani teng ixtiyoriy bo‘laklarga va R nuqtadan B nuqtagacha bo‘lgan masofani ham teng ixtiyoriy bo‘laklarga bo‘lib uqtalar qo‘yiladi. Bu nuqtalardan AB kesmaga nisbatan perpendikulyar chizi qlar o‘tkaziladi. Yuqoridagi formuladan foydalanib sirpanish koeffitsiyenti aniqlanadi va mos ravishda qiymatlarni qo‘yiladi. Agarda qiymat musbat bo‘lsa chap tomonga manfiy bo‘lsa o‘ng tomonga qo‘yiladi.

3 – Topshiriq. Kulachokli mexanizmni loyihalash

Kulachokli mexanizmlar yetaklanuvchi zvenoni (turtkichni) bir vaziyatdan ikkinchi vaziyatga siljitish yoki burish uchun xizmat kiladi. Ular universal bo'lib, turtkichning oldindan belgilangan harakat qonunini bajara oladi.

Ular texnikaning ko'pgina tarmoqlarida: metall kesish stanoklarida, avtomatlarda, o'lchash va hisoblash priborlarida, bug' mashinalarida va ichki yonuv dvigatellarida keng ko'lamda ishlatiladi.

Kulachokli mexanizm loyihalashda ko'zda tutilgan asosiy maqsad etaklanuvchi zvenoning istalgan, oldindan berilgan harakat qonuni bajaruvchi kulachok profilini yasash, foydali ish koeffitsiyenti yuqori va gabariti kichik mexanizm sxemasi tavsiya etiladi (3.1 – shakl).

A sxema – to'g'ri chiziq bo'ylab ilgarilanma – qaytarilanma harakat qiluvchi rolikli turtkichi bo'lgan kulachokli mexanizm.

V sxema – to'g'ri chiziq bo'ylab ilgarilanma – qaytarilanma harakat qiluvchi tekis tarelkali turtkichi bo'lgan kulachokli mexanizm.

S sxema – tebranma (burilma) harakatlanuvchi, rolikli koromisloli turtkichi bo'lgan kulachokli mexanizm.

Kulachokli mexanizm loyihalash uchun quyidagi parametrlar ma'lum bo'lishi kerak.

1. Turtkichning xarakat qonuni (3.2 – shakl):

$$\frac{d^2S}{d\varphi^2}=\frac{d^2S}{d\varphi^2}(\varphi) \quad \text{yoki} \quad \frac{d^2\beta}{d\varphi^2}=\frac{d^2\beta}{d\varphi^2}(\varphi)$$

Bu turtkichning harakat qonuni to'g'ri burchakli diagramma bo'yicha o'zgaradi deb qabul qilamiz.

2. Kulachokning burilish burchaklari: turtkichning ko'tarilish burchagi $\varphi_k=60^o$ turtkichning uzoqlashgan vaziyatda turish burchagi $\varphi_y=20^o$ turtkichning qaytish burchagi $\varphi_k=60^o$ turtkichning yaqinlashgan vaziyatda turish burchagi $\varphi_e=220^o$

3. Kulachokning aylanishlar soni: $n_k=100\ ayl/min$

4. Tutkichning maksimal siljishi: $h_{max} = 0,035\ m$

5. Ekssentritet qiymati: $e = 0,015\ m$

6. Bosim burchagi: $\alpha = 30^{o}$

7. *A* sxema berilgan mexanizm, ya'ni to'g'ri chiziq bo'ylab ilgarilanma qaytarilanma–harakat qiluvchi rolikli turtkichi bo'lgan kulachokli mexanizm loyixalash talab qilinadi (3.1 – shakl, *a*).



3.1– rasm



3.2 – rasm

3.1. Loyihalash tartibi

Berilgan turtkich harakat qonunining diagrammasi chiziladi. Buning uchun

$$\frac{d^2S}{d\varphi^2}=\frac{d^2S}{d\varphi^2}(\varphi)$$

koordinatalar sistemasini olib, absitsissalar o‘qini chizamiz va unga $\overline{OM}=140\ mm$ kesmani belgilaymiz (3.3 – shakl, *a*).

Abssissalar o‘qining φ burchak masshtabini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$\mu\varphi=\frac{\varphi_p^o}{\overline{OM}}=\frac{\frac{\pi}{180^o}(\varphi_k^o+\varphi_y^o+\varphi_k^o)}{\overline{OM}}=\frac{3,14(60^o+20^o+60^o)}{180^o\cdot 140}=0,001745\ rad/mm$$

bu yerda φ_p^o kulachokning burilish burchagi

Ordinatalar o‘qiga turtkichning ixtiyoriy

$$\mu\frac{d^2S}{d\varphi^2}$$

masshtabda berilgan harakat qonuni diagrammasini chizamiz, bunda kulachokning burilish burchagi φ_k qismdagi ordinata balandligini ixtiyoriy $\alpha=60^o$ kesma bilan belgilaymiz. $\varphi_k=60^o$ li abssissalar o'qini teng to'rt burchakli bir xil shakllar chizamiz (3.3 – shakl, *a*), bunda turtkichning ko'tarilish vaziyatiga taaluqli diagramma hosil bo'ladi.

So'ngra absitsissalar o'qining davomida μ_φ masshtabda $\varphi_y^o=20^o$ ning kesma uzunligini belgilaymiz.

Berilgan shartga ko'ra $\varphi_k = \varphi_k$ bo'lgani uchun $\varphi_k=60^o$ kesimni φ_k burchakka simmetrik qilib, teng va o'xshash to'g'ri to'rtburchaklik shakllarni chizamiz.

Grafikaviy integrallash usullarining biridan foydalanib chizilgan

$$\frac{d^2S}{d\varphi^2}=\frac{d^2S}{d\varphi^2}(\varphi)$$

diagrammani integrallaymiz. Vatar o'tkazish usulini tadbiq etib,

$$\frac{d^2S}{d\varphi^2}=\frac{d^2S}{d\varphi^2}(\varphi)$$

grafikni bir marta integrallaymizda,

$$\frac{d^2S}{d\varphi^2}=\frac{d^2S}{d\varphi^2}(\varphi)$$

ning diagrammasini hosil qilamiz.

Buning uchun abssissalar o'qidagi $\varphi_k=60^o$ kesmani $10'=10\ mm$ deb olib, bir – biriga teng oltita kesmaga bo'lamiz. Bo'lingan kesmalarning abssissalar o'qidagi 0, 1, 2, 3 ... nuqtalaridan vertikal chiziqlar o'tkazamizda, berilgan grafikda bo'lish nuqtalari $0'''$, $1'''$, $2'''$, $3'''$,... ni hosil qilamiz.

$$\frac{d^2S}{d\varphi^2}=\frac{d^2S}{d\varphi^2}(\varphi)$$

yuqori qismida

$$\frac{dS}{d\varphi}=\frac{dS}{d\varphi}(\varphi)$$

grafigi uchun yangi koordinatalar sistemasini chizamiz.

$$\frac{d^2S}{d\varphi^2}=\frac{d^2S}{d\varphi^2}(\varphi)$$

diagrammasidagi vertikal chiziqlarni yuqori tomonga davom ettirib, 0_φ abssissalar o'qini 0–1, 1–2, 2–3, ga teng kesmalarga bo'lamiz (3.2 – shakl, *b*).

$$\frac{d^2S}{d\varphi^2}=\frac{d^2S}{d\varphi^2}(\varphi) \quad va \quad \frac{dS}{d\varphi}=\frac{dS}{d\varphi}(\varphi)$$

diagrammalarining ordinata o'qlarini bir xil va teng masshtabda chizish uchun

$$\frac{d^2S}{d\varphi^2}=\frac{d^2S}{d\varphi^2}(\varphi)$$

diagrammasining chap tomonidagi qutb oralig'i quyidagicha bo'lishi kerak:

$$H_2=\frac{1}{\mu\varphi}=\frac{1}{\pi/180^o}=57,2\ mm$$

Abssissalar o'qining chap tomonida $\overline{OA_2}=H_2=57,2\ mm$ kesmani chizib, A_2 nuqtani belgilaymiz. 0‴, 1‴, 2‴, 3‴,... ni hokazo chiziqlarn[ing har biri o'rtasidagi I‴, II‴, III‴, ... nuqtalarni

$$\frac{d^2S}{d\varphi^2}$$

ordinatalar o'qiga ko'chiramiz.

Ordinatalar o'qidagi I‴, II‴, III‴, ... nuqtalarni A_2 qutb bilan tutashtirib A_2–I‴, A_2–II‴, A_2–III‴, ... nurlarni o'tkazamiz. So'ngra

$$\frac{dS}{d\varphi}=\frac{dS}{d\varphi}(\varphi)$$

diagrammasining 0 nuqtasidan A_2–I‴ nurga parallel qilib 0–1 qismning birinchi vertikal chizig'i bilan uchrashguncha chiziq o'tkazib, I″ nuqtani belgilaymiz (3.3 – shakl, *b*).

Ordinatadagi vertikal chiziqning I″ nuqtasidan A_2–II‴, nur chizig'iga parallel chiziq o'tkazib, ikkinchi vertikal chiziqda 2″ nuqtani olamiz. Diagrammaning qolgan qismlari ham xuddi shu tarzda chiziladi. Belgilangan 0‴, 1‴, 2‴, 3‴,... nuqtalarni birlashtirib grafikaviy integrallangan

$\frac{dS}{d\varphi}=\frac{dS}{d\varphi}(\varphi)$

diagrammasini hosil qilamiz.

Shuningdek,

$\frac{dS}{d\varphi}=\frac{dS}{d\varphi}(\varphi)$

diagrammani yana bir marta grafikaviy integrallab, $S=S(\varphi)$ siljish diagrammasini chizamiz (3.3 – shakl, *c*). Shunda S va

$\frac{dS}{d\varphi}$

ordinata masshtablari teng bo'lishi uchun $\overline{H_1}=\overline{OA_1}=57,2\ mm$ qilib olish kerak.

So'ngra $S=S(\varphi)$ va

$\frac{d^2S}{d\varphi^2}=\frac{d^2S}{d\varphi^2}(\varphi)$

diagrammalari ordinata o'qlarining masshtab koeffitsiyentlari

$$\mu_{\frac{dS}{d\varphi}},\ \mu_{\frac{d^2S}{d\varphi^2}}$$

ni hisoblab topamiz.


Turtkichning harakat diagrammalari
Kulachokning minimal radiusini aniqlash
S
S_{max} =175 mm
μ_S =0,002 m/mm
μ_φ =0,01745 rad/mm
0 1 2 3 4 5 6 8 9 10 11 12 13 φ, i
30°
$\frac{dS}{d\varphi}$
e
r_{min} = 0,092 m
0_{min} =0,116 m
b)
$\mu_{dS/d\varphi}$=0,002 m/mm
$eS/d\varphi=v$
μ_v=0,0209 m/mm
Almashtiruvchi mexanizm
51°
Tezlik rejasi
μ_v =0,0209 m/mm
c)
a
u
p
a)
$d^2S/d\varphi^2=a$
μ_{a^2}=0,002 m/mm²
μ_{a_2} =0,294 m/mm
a=60 mm
a_2
n_2 =57,2mm
Tezlanish rejasi
μ_a =0,294 m/mm
π
v
d)
0
φ_1 =60
φ_2 =30
φ_3 =60

3.2. Diagramma masshtablarini aniqlash

Turtkich siljish diagrammasi ordinata o'qining masshtabi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\mu_S = \frac{h_{max}}{S_{max}} = \frac{0,035}{17,5} = 0,002\ m/mm$$

bu yerda S_{max}- siljish diagrammasi ordinatasining maksimal analogining qiymati, mm.

Tezlik analogining ordinata masshtabi:

$$\mu_{\frac{dS}{d\varphi}} = \frac{\mu_S}{H_1 \cdot \mu_\varphi} = \frac{\mu_S}{\frac{1}{\mu_\varphi} \cdot \mu_\varphi} = \mu_S = 0,002\ m/mm$$

Tezlanish analogining ordinata masshtabi:

$$\mu_{\frac{d^2S}{d\varphi^2}} = \frac{\mu_{\frac{dS}{d\varphi}}}{H_2 \cdot \mu_\varphi} = \frac{\mu_{\frac{dS}{d\varphi}}}{\frac{1}{\mu_\varphi} \cdot \mu_\varphi} = \mu_{\frac{dS}{d\varphi}} = 0,002\ m/mm$$

Shundan keyin ordinatalar o'qining chiziqli tezligi μ_V masshtabi va urinma tezlanishi masshtabi μ_a ni aniqlaymiz. Nazariy mexanika kursidan ma'lumki, yo'lning burilish burchagi bo'yicha birinchi hosilasi chiziqiy tezlik ordinatasiga proporsional bo'ladi, ya'ni:

$$V_2 = \frac{dS}{dt} = \frac{dS \cdot d\varphi}{dt \cdot d\varphi} = \omega_k \cdot \frac{dS}{d\varphi}$$

Bunda

$$\frac{dS}{dk} = \frac{V_2}{\omega_k}$$

kelib chiqadi. Demak, chiziqli tezlikning ordinata masshtabi

$$\mu_{V_2} = \omega_k \cdot \mu_{\frac{dS}{d\varphi}} = 10,46 \cdot 0,002 = 0,209 \frac{m}{sek}/mm$$

bo'ladi, bu yerda

$$\omega_k = \frac{\pi n_k}{30} = \frac{3,14 \cdot 100}{30} = 10,46\ rad/sek$$

kulochokning burchak tezligi. Chiziqli tezlanishining ordinata masshtabi quyidagicha aniqlanadi.


Turtkichning harakat diagrammalari
Kulochokning minimal radiusini aniqlash
b)
a)
c)
d)
Tezlik rejasi
Tezlanish rejasi
Almashtiriluvchi mexanizm

3.2. Diagramma masshtablarini aniqlash

Turtkich siljish diagrammasi ordinata o'qining masshtabi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\mu_S = \frac{h_{max}}{S_{max}} = \frac{0,035}{17,5} = 0,002\ m/mm$$

bu yerda S_{max}- siljish diagrammasi ordinatasining maksimal analogining qiymati, mm.

Tezlik analogining ordinata masshtabi:

$$\mu_{\frac{dS}{d\varphi}} = \frac{\mu_S}{H_1 \cdot \mu_\varphi} = \frac{\mu_S}{\frac{1}{\mu_\varphi} \cdot \mu_\varphi} = \mu_S = 0,002\ m/mm$$

Tezlanish analogining ordinata masshtabi:

$$\mu_{\frac{d^2S}{d\varphi^2}} = \frac{\mu_{\frac{dS}{d\varphi}}}{H_2 \cdot \mu_\varphi} = \frac{\mu_{\frac{dS}{d\varphi}}}{\frac{1}{\mu_\varphi} \cdot \mu_\varphi} = \mu_{\frac{dS}{d\varphi}} = 0,002\ m/mm$$

Shundan keyin ordinatalar o'qining chiziqli tezligi μ_V masshtabi va urinma tezlanishi masshtabi μ_a ni aniqlaymiz. Nazariy mexanika kursidan ma'lumki, yo'lning burilish burchagi bo'yicha birinchi hosilasi chiziqiy tezlik ordinatasiga proporsional bo'ladi, ya'ni:

$$V_2 = \frac{dS}{dt} = \frac{dS \cdot d\varphi}{dt \cdot d\varphi} = \omega_k \cdot \frac{dS}{d\varphi}$$

Bunda

$$\frac{dS}{dk} = \frac{V_2}{\omega_k}$$

kelib chiqadi. Demak, chiziqli tezlikning ordinata masshtabi

$$\mu_{V_2} = \omega_k \cdot \mu_{\frac{dS}{d\varphi}} = 10,46 \cdot 0,002 = 0,209 \frac{m}{sek}/mm$$

bo'ladi, bu yerda

$$\omega_k = \frac{\pi n_k}{30} = \frac{3,14 \cdot 100}{30} = 10,46\ rad/sek$$

kulochokning burchak tezligi. Chiziqli tezlanishining ordinata masshtabi quyidagicha aniqlanadi.

$$\mu_a=\omega_k^2\cdot\mu_{\frac{d^2S}{d\varphi^2}}=10,46^2\cdot 0,002=0,219\ \frac{m/sek^2}{mm}$$

3.3. Kulachokning minimal radiusini aniqlash

Grafikaviy usulda

$$S=S(\varphi)\qquad \frac{ds}{d\varphi}=\frac{ds}{d\varphi}(\varphi)$$

larning diagrammalarida o‘zgaruvchi φ burchakni yo‘qotib,

$$S=S(\varphi)\left(\frac{ds}{d\varphi}\right)$$

diagrammasini chizamiz (9-shakl,g). buning uchun

$$S=S(\varphi)\left(\frac{ds}{d\varphi}\right)$$

ning to‘g‘ri burchakli koordinatalar sistemasini chizib, uning ordinatalar o‘qiga turtkichning siljishi S ni va abssissalar o‘qiga tezlik analogi

$$\frac{ds}{d\varphi}$$

ni qo‘yamiz. Bunda

$$\frac{ds}{d\varphi}=\frac{ds}{d\varphi}(\varphi)$$

diagrammasining qutbiy oralig‘i H_1 ni hisoblashda tezlik masshtabi $\mu_{\frac{ds}{d\varphi}}$ ni siljish masshtabi μ_S ga teng qilib olish kerak. Kulachokning aylanish markazi O_k ni olamiz. O_k nuqtani

$$S=S(\varphi)\left(\frac{ds}{d\varphi}\right)$$

diagrammasining koordinatalar boshi O bilan birlashtirilib, aksial kulachokning minimal radiusini ko‘rsatuvchi kesmani olamiz. U holda,

$$r_{O\,min}=\overline{O_kO}\cdot\mu_S=46\cdot 0,002=0,092\ m$$

bo‘ladi. Agar turtkichning siljish chizig‘i yo‘nalishi kulachokning aylanish markazi O_k dan e oraliqqa o‘tsa, kulachokning minimal radiusi quyidagicha aniqlanadi:

$$\overline{e}=\frac{e}{\mu_S}=\frac{0,015}{0,002}=7,5\ mm$$

Bu kesmani kulachokning aylanishi bo'yicha OS to'g'ri chiziqning o'ng tomonida punktir to'g'ri chiziq bilan belgilaymiz. Uni urinma chiziq bilan kesishguncha davom ettirib, dezaksial kulachokning markazi O_k' ni aniqlaymiz.

Kulachokning minimal radiusi

$$r_{O\ min}=\overline{O_k'O}\cdot\mu_S=58\cdot 0,002=0,0116\ m$$

3.4. Ilgarilanma – qaytarilanma harakatlanuvchi rolikli turtkichi bo'lgan markaziy kulachokli mexanizm loyihalash

Agar $e=0$ bo'lsa, markaziy (aksial) kulachok profili chiziladi. Mexanizmni "qaytarish" usulini tatbiq etib, kulachok profilini chizamiz.

1. Chizmada ixtiyoriy nuqtada kulachokning aylanish markazi O_k ni tanlaymiz.
2. Uzunlik masshtabi $\mu_l=0,001\ m/mm$ bo'yicha kulachok radiusini xisoblaymiz:

$$r_{O\ min}=\frac{r_{O\ min}}{\mu_e}=\frac{0,092}{0,001}=92\ mm$$

Bu radius bilan aylana chizamiz (3.3 – shakl, *d*). Bu yerda kulachok profilining uzunlik masshtabi μ_l siljish grafigining masshtabi μ_S ga teng emas. Shuning uchun proporsionallik koeffitsiyenti K hisobga olinadi:

$$\mu_l=K\cdot\mu_S=\frac{1}{2}\cdot 0,002=0,001\ m/mm$$

3. Kulachokning markazi O_k dan vertikal $y-y$ chiziq o'tkazamiz. Kulachok markaziga rolikning yaqin turish paytida turtkichning vaziyatini belgilaymiz. Shunda rolikning markazi A kulachokning nazariy minimal radiusi $r_{O\ min}$ bilan o'tkazilgan aylanasida yetadi. Bu vaziyat turtkichning ko'tarilish payti bo'ladi.

3.5. Turtkich roliklarining radiusini aniqlash

Kulachok profilining yeyilishini va oliy kinematikaviy juftning shqalanishi kamaytirish uchun yetaklanuvchi zvenoga rolik o'rnatiladi. Rolikning o'lchamlari kulachok yasashda, uning profil chiziqlarining o'zaro kesishmaslik sharti va boshqa shartlarga binoan

$r_p \le (0,7...0,8)\rho_{min}$

$r_p \le (0,4...0,5)r_{O\,min}$

qilib olinadi (bu yerda ρ_{min} – kulachok markaziy profilining minimal egrilik radiusi). Bu ikki ifoda yordamida rolikning radiusini hisoblab topamiz. Uning kichik qiymati qabul qilinadi. Kulachok profilining minimal egrilik radiusini eng kichik bo'lgan qismi tanlanadi. Shu qism minimal radiusining markazi topiladi.

Buning uchun egrilik radiusi qidirilaètgan profil nuqtasi profilning shu nuqtaga yaqin o'ng va chap nuqtalari bilan tutashtirib, yoyning vatari o'tkaziladi. So'ngra vatarlar o'rtasidan tik chiziqlar o'tkazilib, ularning kesishuv nuqtasi belgilanadi. (3.3 – shakl, *d*). Ana shu nuqta egrilik radiusining markazi bo'ladi. Aksial kulachokli mexanizmlar roliklarining radiusini quyidagicha hisoblab topiladi:

$$r_p = 0,8 \cdot \overline{\rho_{min}} \cdot \mu_l = 0,8 \cdot 50 \cdot 0,001 = 0,040\ m$$

$$r_p = 0,4 \cdot r_{O\,min} = 0,4 \cdot 0,092 = 0,037\ m$$

hisoblab topilgan bu radiuslarning eng kichigi, ya'ni $r_p = 0,037\ m$ qabul qilinadi.

3.6. Haqiqiy kulachok profilini chizish

Kulachokning markaziy profili bo'yicha rolikning markazini aniqlab,

$$r_p = \frac{r_p}{\mu_l} = \frac{0,037}{1,001} = 37\ mm$$

radiusli bir necha aylanma chiziladi va bu aylanalarning chekka nuqtalari tutashtirilib, kulachokning haqiqiy profili hosil qilinadi.

3.7. Almashtirilgan mexanizm chizish va turtkichning tezlik va tezlanishini aniqlash

Oliy kinematikaviy juftli mexanizmlarni kinematikaviy analiz qilishda hisoblash usulini soddalashtirish maqsadida, ko'pincha, ularning oniy vaziyati shartli mexanizmga almashtiriladi. Kulachok profilida turtkichning vaziyatiga qarab, almashtirilgan mexanizmning uzunlik o'lchamlari o'zgaradi.

Buning uchun kulachokli mexanizmning berilgan vaziyati uchun uning oliy kinematikaviy jufti quyi kinematikaviy juftga almashtirilib, faqat quyi kinematikaviy juftli richagli mexanizm chiziladi.

Oliy kinematikaviy juft quyi kinematikaviy juftga almashtirilganda yangi mexanizmning qo'zg'aluvchanlik darajasi o'zgarmasligi kerak. Bunda oliy kinematikaviy juft ikkita aylanma yoki aylanma va ilgarilanma quyi kinematikaviy juftli bitta shartli zvenoga almashtiriladi.

Almashtirish tartibi quyidagicha bo'ladi:

Zvenolarning oliy kinematikaviy juftlarining urinish nuqtasidan ularning profiliga normal chiziqlar o'tkaziladi. Bu chiziqlarda har bir zveno egrilik radiusining markazi topiladi. Profilning egrilik radiusi markaziga aylanma kinematikaviy juft (sharnir) joylashtiriladi. Agar egrilik radiusining markazi cheksizlikda yotsa, ya'ni zveno profili to'g'ri chiziq bo'lsa, u holda profilning urinish nuqtasiga ilgarilanma kinematikaviy juft o'rnatiladi. So'ngra aniqlangan kinematikaviy juftlar chiziq bilan birlashtirilib, qo'shimcha zveno olinadida, u oldingi zvenolar bilan birlashtiriladi.

Almashtirilgan mexanizm kulachokli mexanizmning chizmasida shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan (3.3 – shakl, *e*).

Kulachok va rolikdan iborat mexanizmning oliy kinematikaviy juftini unga ekvivalent bo'lgan quyi kinematikaviy juftli mexanizm bilan almashtiramiz.

Kulachok profillarining urinish nuqtalarining egrilik markazlarini aniqlaymiz. Rolikning profili aylana bo'lishi uchun uning egrilik markazi aylanish o'qi *A* da joylashgan bo'ladi. Kulachokning profili egri chiziq bo'lgani uchun urinish nuqtalarining egrilik markazlarini aniqlaymiz. Rolikning profili aylana

bo'lgani uchun, uning egrilik marakazi aylanish o'qida yotadi. Kulachokning profili egri chiziq bo'lgani uchun uning urinish nuqtasi A_4 dan profilga normal $n-n$ chiziq o'tkazamiz va unda egrilik markazi M nuqtani belgilaymiz. A_4 va M nuqtalarni shtrix to'g'ri chiziq bilan birlashtirib, yangi qo'shimcha zvenoni hosil qilamiz. Almashtirilgan mexanizm krivoship – polzunli mexanizmdir. Almashtirilgan mexanizm uchun tezliklar planini chizamiz (3.3 – shakl, *j*). Kulachokdagi M nuqtaning tezligi quyidagicha bo'ladi:

$$V_M=O_kM\cdot\omega_k=\overline{O_kM}\cdot\mu_l\cdot\omega_k=74\cdot0,001\cdot10,46=0,774\ m/sek$$

$$\mu_V=\mu_{V_2}=0,0209\ \frac{m/sek}{mm}$$

U holda, A nuqta tezligi vektorning kesma uzunligi

$$\overline{pM}=\frac{V_M}{\mu_V}=\frac{0,774}{0,0209}=37\ mm$$

Turtkichning A nuqtasi tezligini aniqlash uchun uning vektoriyal tenglamasini tuzamiz:

$$\overline{V_A}=\overline{V_M}+\overline{V_{AM}}$$

$$\overline{V_A}=\overline{V_y}+\overline{V_{Ay}}$$

Tezliklarning kutbiy rejasini chizib, turtkichning A nuqtasi tezligini aniqlaymiz (3.3 – shakl, *j*).

$$V_A=\overline{P_1a}\cdot\mu_V=21\cdot0,0209=0,44\ m/sek$$

$$\frac{ds}{d\varphi}=\frac{ds}{d\varphi}(\varphi)$$

diagrammasidan turtkichning shu vaziyatdagi tezligini aniqlaymiz:

$$V_A^l=\overline{44'}\cdot\mu_{V_2}=20\cdot0,0209=0,42\ m/sek$$

Tezliklar farqini hisoblab topamiz:

$$\Delta V=\frac{V_A-V_A^l}{V_A}\cdot100\%=\frac{0,44-0,42}{0,44}\cdot100\%=4,55\%$$

3.8. Almashtirilgan mexanizmning tezlanishlarini aniqlash

Kulachok o'zgarmas tezlik $\omega_k=const$ bilan aylangani uchun, uning burchagiy tezlanishi ε ham, urinma chiziqiy tezlanishi a^τ ham nolga teng. U holda kulachokdagi M nuqtaning tezlanishi quyidagicha bo'ladi:

$$a_M=a^n_{MO}=O_kM\cdot\omega_k^2=\overline{O_kM}\cdot\mu_l\cdot\omega_k^2=74\cdot0,001\cdot10,46^2=8,1\ m/sek^2$$

tezlanishlar rejasini chizish uchun tezlanish masshtabi μ_a tezlanishlar

$$\frac{d^2s}{d\varphi^2}=\frac{d^2s}{d\varphi^2}(\varphi)$$

diagrammasining masshtabi μ_{α_2} ga teng qilib olamiz:

$$\mu_a=\mu_{a_2}=0,219\ \frac{m}{mm\cdot sek^2}$$

Kulachokdagi M nuqtaning tezlanishi vektori kesmaning uzunligini aniqlaymiz:

$$\overline{\pi M}=\frac{a_M}{\mu_a}=\frac{8,1}{0,219}=37\ mm$$

Tezlanishlar rejasi chizish uchun tezlanishlarning vektoriyal tenglamasini tuzamiz:

$$\overline{a_a}=\overline{a_M}+\overline{a^n_{AM}}+\overline{a^\tau_{AM}}$$

$$\overline{a_A}=\overline{a_y}+\overline{a^n_{AM}}+\overline{a^\tau_{Ay}}$$

Yo'naltirilgan qo'zg'almas bo'lgani uchun $a_y=0$, $a^k_{Ay}=0$ bo'ladi. yuqoridagi tenglamada normal tezlanish

$$a^n_{AM}=\frac{V^2_{AM}}{MA}=\frac{\left(\overline{Ma}\cdot\mu_V\right)^2}{\overline{MA}\mu_l}=\frac{(39\cdot0,0209)^2}{52\cdot0,001}=12,78\ m/sek^2$$

Tezlanishlar planini chizib (3.3 – shakl, z), turtkichning A nuqtasi tezlanishi qiymatini aniqlaymiz.

$$a_A=\overline{\pi a}\cdot\mu_a=61\cdot0,219=13,36\ m/sek^2$$

turtkichning turish vaziyati

$$a^d_A=\overline{4\text{-}4'''}\cdot\mu_{a_2}=60\cdot0,219=13,14\ m/sek^2$$

Turtkichning tezlanishlari farqi quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta a=\frac{a_A-a_A^d}{a_A}\cdot 100\%=\frac{13,36-13,14}{13,36}\cdot 100\%=1,6\%$$

Demak, turtkichning tezlik va tezlanishlari qiymatini ikki usul bilan aniqlaganimizda, ularning qiymatlari bir – biridan katta farq qilmadi, ya`ni 5% dan oshmadi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar



I – topshiriq bo'yicha variantlar						
Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar				
		1	**2**	**3**	**4**	**5**
$b=2,5\cdot O_1A$	O_1A, m	0,04	0,05	0,06	0,08	0,10
	φ, rad	330	30	60	270	90
	n, $\frac{ayl}{min}$	60	70	80	50	40
$b_1=4\cdot O_1A$	P, N	200	300	400	350	250
	Berilgan kattaliklar	Variantlar				
		6	**7**	**8**	**9**	**10**
	O_1A, m	0,12	0,14	0,16	0,18	0,20
	φ, rad	240	120	210	180	0

$O_2D=5\cdot O_1A$	$n, \frac{ayl}{min}$	30	90	100	80	60
	P, N	220	320	360	340	260
Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar				
		11	**12**	**13**	**14**	**15**
$b=2,5\cdot O_1A$	O_1A, m	0,06	0,07	0,08	0,09	0,11
	φ, rad	340	40	70	280	90
	$n, \frac{ayl}{min}$	70	80	90	60	50
$b_1=4\cdot O_1A$	P, N	200	300	400	350	250
	Berilgan kattaliklar	Variantlar				
		16	**17**	**18**	**19**	**20**
	O_1A, m	0,13	0,15	0,17	0,19	0,20
$O_2D=5\cdot O_1A$	φ, rad	250	130	230	190	0
	$n, \frac{ayl}{min}$	30	90	110	90	60
	P, N	230	330	370	350	270



II – topshiriq bo'yicha variantlar										
Kattaliklar	Variantlar									
	1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**
n_5, $\frac{ayl}{min}$	667	1200	2400	1200	750	750	2000	1200	857	750
Z_1	80	60	70	64	65	84	85	56	75	72
Z_2	40	80	30	16	35	21	30	14	35	18
Z'_2	40	80	30	16	35	21	30	14	35	18
Z_3	25	20	25	12	15	14	25	21	20	12
a_w, *mm*	65	50	65	60	45	77	80	63	60	66
y_{45}	3	2	2,23	2	1,29	2,13	2,65	2,5	1,75	2,13
m, *mm*	6	6	6	6	6	6	6	6	6	6
Kattaliklar	**11**	**12**	**13**	**14**	**15**	**16**	**17**	**18**	**19**	**20**
	660	1200	2400	1200	750	750	2000	1200	860	750
n_5, $\frac{ayl}{min}$	90	70	80	74	75	84	85	66	85	82
Z_1	50	90	30	16	35	31	40	24	45	28
Z_2	50	90	30	16	35	31	40	24	45	28
Z'_2	35	30	35	22	15	24	35	21	30	22
Z_3	65	60	75	60	45	77	80	63	70	66
a_w, *mm*	3	2	2,25	2	1,3	2,15	2,65	2,5	1,75	2,15
y_{45}	6	6	6	6	6	6	6	6	6	6
m, *mm*	667	1200	2400	1200	750	750	2000	1200	857	750



III – topshiriqlar bo'yicha variantlar										
Diagramm anig turi	Asosiy hisoblash parametrlari	Variantlar								
		1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**
IX	$\varphi_k=\varphi_k$, *grad*	110	75	85	95	105	100	90	110	120	130
	φ_y, *grad*	20	25	15	35	15	10	20	0	10	0
	h_{max}, *m*	0,03	0,035	0,02	0,015	0,05	0,025	0,02	0,015	0,03	0,02
	n_k, *ayl/min*	400	450	500	550	600	625	650	475	600	425
	e, m	0,012	0,01	0,02	0,025	0,015	0,025	0,02	0	0,01	0,02
		11	**12**	**13**	**14**	**15**	**16**	**17**	**18**	**19**	**20**
IX	$\varphi_k=\varphi_k$, *grad*	120	85	85	95	110	110	90	120	130	140
	φ_y, *grad*	25	25	25	35	25	20	25	0	20	0
	h_{max}, *m*	0,03	0,035	0,02	0,015	0,05	0,025	0,02	0,015	0,03	0,02
	n_k, *ayl/min*	400	450	500	550	600	625	650	475	600	425
	e, m	0,012	0,01	0,02	0,025	0,015	0,025	0,02	0	0,01	0,02

IV – BOB. MASHINA DETALLARI

1.1. Kurs loyihasini bajarish uchun umumiy ma'lumot

"Mashina detallari" fanidan kurs loyihasi 710000 – Muhandislik ishi va 720000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish ta'lim sohalarida tahsil olayotgan talabalar uchun mashina detallarini loyihalash bo'yicha ilk amaliy – konstruktorlik tajribasi bo'ladi. Kurs loyihasi topshirig'ida talabalarga ularning ta'lim yo'nalishidagi ishchi texnologik mashinalarning yuritmalarini loyihalash bo'yicha mustaqil bajarish uchun topshiriqlar ham beriladi. Topshiriqda, odatda, yuritmaning kinematik sxemasi, ekspluatatsion, yuklama va energetik parametrlari beriladi.

Talabalar berilgan vazifa bo'yicha yuritmaning hamma elementlari hisobini bajarishi va silindrik, konussimon, chervyakli va boshqa turdagi reduktor ko'rinishidagi yopiq va ochiq uzatmani hamda yuritmani loyihalashlari zarur bo'ladi.

Kurs loyihasi asosan talabalarning mustaqil ishga ajratilgan vaqti hisobiga bajariladi. Lekin talabalardan bu loyihani o'z vaqtida sifatli bajarish ancha jiddiy mehnat va malakani talab etadi. Shu sababli, kurs loyihasiga rahbar va maslahatchi o'qituvchilar o'tiladigan maslahat darslarida talabalarning aksariyat qismida qiyinchilik tug'diradigan masalalarni tushuntirib, talabalar to'g'ri anglashiga va adabiyotlardan to'g'ri foydalanishiga yo'nalish, ko'rsatma va tavsiyalar berishi kerak bo'ladi. Bunda kurs loyihalari topshiriqlarining ayrim qismlarini dars vaqtida hamma talabalar bilan misol ishlab ko'rilsa maqsadga muvofiq sanaladi. Shu bilan birga, talabalarning kurs loyihasini to'g'ri va o'z vaqtida bajarishga yordam beradigan boshqa choralarni, jumladan, loyihaning ma'lum qismi hisoblari yoki chizmani kompyuter dasturlari yoki grafik dasturlar yordamida bajarishga imkon berish mumkin. Lekin, bu dastur va vositalardan foydalanganda talabaga ko'chirish yoki dasturdan shablon – andoza sifatida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Kurs loyihasi vazifasini bajarishda talabaga tarqatiladigan topshiriq ochiq bir yoki ikki pog'onali reduktor ko'rinishidagi uzatmalardan iborat bo'ladi.

Kurs loyihasi hajmi 30 – 35 varaq A4 formatidagi izoh (hisobiy – tushutirish yozuvi) va 3 ta A1 formatidagi chizmalardan iborat bo'ladi.

Izoh matni mazmuni:

1. Loyihalash uchun topshiriq.
2. Yuritmaning kinematik hisobi.
3. Ochiq uzatmaning hisobi.
4. Yopiq uzatma (reduktor)ning loyiha va tekshiruv hisoblari.
5. Vallarning hisobi.
6. Reduktor detallarini eskizda joylashtirishning birinchi bosqichi.
7. Podshipniklar tanlash va ularning xizmat muddati – umrboqiyligini aniqlash.
8. Shponka tanlash va shponkali birikma mustahkamligini hisoblash.
9. Reduktor detallarining eskizda joylashtirishning ikkinchi bosqichi.
10. Muftalarni tanlash.
11. Moylash tizimini ishlab chiqish va moy tanlash.

Kurs loyihasi chizmasi tarkibi va mazmuni:

1. Reduktorning umumiy ko'rinishi.
2. Reduktorning 3 – 4 detali ishchi chizmalari.
3. Yuritmaning eskiz chizmasi.

Bundan tashqari kurs loyihasini iqtisodiy baholash ham bajarilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kurs loyihasining taxminiy ro'yxati

- Bir pog'onali, silindrik g'ildirakli reduktorli lentali konveyer yuritmasini loyihalash.
- Bir pog'onali, silindrik g'ildirakli reduktorli zanjirli konveyer yuritmasini loyihalash.
- Bir pog'onali, konussimon reduktorli lentali konveyer yuritmasini loyihalash.
- Bir pog'onali, konussimon reduktorli zanjirli konveyer yuritmasini loyihalash.

- Bir pog‘onali, chervyakli reduktorli lentali konveyer yuritmasini loyihalash.
- Bir pog‘onali, chervyakli reduktorli zanjirli konveyer yuritmasini loyihalash.

Kurs loyihasi bo‘yicha texnik topshiriqlar

Texnik topshiriqda umumiy maqsadli yurutma loyihalashtirish taklif etiladi. Tavsiya etilgan yurutmanig kinematik sxemalari quyidagicha ifodalash mumkin:



Yuritmani sxemalari:

1 – elektr motor; 2 – elastik birikma; 3 – bir pog‘onalili reduktor; 4 – tasma; 5 – zanjirli uzatish; 6 – silindrsimon ochiq uzatmalar qutisi;

ДО – dvigatel vali; *Б1* – yuqori tezlikli uzatmalar qutisi vali; *Т2* – past tezlikli reduktor vali; *П3* – ishchi mashinaning uzatuvchi vali.

1.2. Kurs loyihasini mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

I – topshiriq

Bir pog‘onali, silindrik g‘ildirakli reduktorli lentali konveyer yuritmasi loyihalansin. Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar 1.1 – jadvalda ko‘rsatilgan.



1.1.1– rasm



1.1.2– rasm

Xizmat muddati – 10 yil;

Yillik koeffitsiyenti – $K_y = 0,8$

Kunlik foydalanish koeffitsiyenti – $K_C = 0,3$

1.1– jadval

Variant	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
P_{chiq}, *kVt*	3,5	5	10	17	19	23	26	28	34	27,5	9	8
ω_{chiq}, *1/s*	16	16	18	20	18	16	14	13	11	9,5	28,5	20
$[a_\omega]$, *mm*	125	140	160	180	200	225	250	280	315	315	125	140
n_c, *1/min*	1000								750		1000	
Sxema	1.1.2									1.1.1		

13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24
8,5	10	14	15,5	20,5	2,5	3,5	5	1,5	2,5	3,5	5
12	11	11	9,5	9,5	37,5	37,5	37,5	28,5	30	30	25
180	200	225	250	280	80	90	100	80	90	100	112
750					1500	1500	1500	1500	1500	1500	1000
1.1.1					1.1.1	1.1.1	1.1.1	1.1.2	1.1.2	1.1.2	1.1.1

II – topshiriq

Bir pog'onali, silindrik g'ildirakli reduktorli zanjirli konveyer yuritmasi loyihalansin. Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar 1.2 – jadvalda ko'rsatilgan.



1.2.1 – rasm

Xizmat muddati – 10 yil;

Yillik koeffitsiyenti – K_y= 0,8

Kunlik foydalanish koeffitsiyenti – K_C=0,3

1.2 – jadval

Variant	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
P_{chiq}, *kVt*	10,5	12	22	12	13,5	16	19	17	19,5	27,5
ω_{chiq}, *1/s*	85	76,5	69	28	25	19,5	20	13,5	12	12
$[a_\omega]$, *mm*	80	100	125	140	160	180	200	225	250	280
n_c, *1/min*	1500	1500	1500	1000	1000	750	1000	750	750	750

III – topshiriq

Bir pog‘onali, konussimon reduktorli lentali konveyer yuritmasi loyihalansin. Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar 1.3 – jadvalda ko‘rsatilgan.



1.3.1 – rasm

Xizmat muddati – 10 yil;

Yillik koeffitsiyenti – K_y= 0,8

Kunlik foydalanish koeffitsiyenti – K_C=0,3

1.3 – jadval

Variant	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
P_{chiq}, *kVt*	0,5	1	1,5	2	3	4,5	6,5	9	13	18,5
ω_{chiq}, *1/s*	30,5	31	31	31,5	31,5	32	32	32	32,5	32
$[d_{e2}]$, *mm*	125	140	160	180	200	225	250	280	315	355
n_c, *1/min*	1000									

IV – topshiriq

Bir pog'onali, konussimon reduktorli zanjirli konveyer yuritmasi loyihalansin. Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar 1.4 – jadvalda ko'rsatilgan.



1.4.1 – rasm

Xizmat muddati – 10 yil;

Yillik koeffitsiyenti – $K_y = 0,8$

Kunlik foydalanish koeffitsiyenti – $K_C = 0,3$

1.4 – jadval

Variant	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
P_{chiq}, *kVt*	3,5	5	7	10	14	19,5	28	25,5	0,5	1
ω_{chiq}, *1/s*	60	60,5	61	61	61,5	61,5	61,5	49	65	66
$[d_{e2}]$, *mm*	160	180	200	225	250	280	315	355	80	90
n_c, *1/min*	1500									

V – topshiriq

Bir pog'onali, chervyakli reduktorli lentali konveyer yuritmasi loyihalansin. Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar 1.5 – jadvalda ko'rsatilgan.



1.5.1 – rasm



1.5.2 – rasm

Xizmat muddati – 2000 soat

1.5 – jadval

Variant	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
P_{chiq}, *kVt*	1,5	2	3	4,5	6	8	12	17	24	1,5	2
ω_{chiq}, *1/s*	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	5,5	5,5
$[a_\omega]$, *mm*	125	140	160	180	200	225	250	280	315	125	140
n_c, *1/min*	1500									1000	
	1.5.1						1.5.2				1.5.2

2. Elektr dvigatelini tanlash

2.1. Uzatmani kinematikasi va kuchga hisoblash

1) Uzatmaning umumiy samaradorligini aniqlash (2.1 – jadval)

$$\eta_{um}=\eta_m \cdot \eta_{red}$$

Bu yerda: η_{red} - reduktorning foydali ish koeffitsiyenti;

η_m - muftaning foydali ish koeffitsiyenti;

$\eta_{red}=\eta_z$

$\eta_z=$

$\eta_m=$

$\eta_{um}=$

2.1 – jadval

Uzatmaning turi	Yopiq uzatma	Ochiq uzatma
Silindrsimon	0,96 ÷ 0,98	0,93 ÷ 0,95
Konussimon	0,95 ÷ 0,97	0,92 ÷ 0,94
Chervyakli		
kirimlar soni Z_1=1	0,65 ÷ 0,7	0,5 ÷ 0,6
Z_1=2	0,7 ÷ 0,6	0,6 ÷ 0,7
Z_1=4	0,8 ÷ 0,9	–
Zanjirli	0,95 ÷ 0,97	0,9 ÷ 0,93
Tasmali		
yassi	–	0,96 ÷ 0,98
ponasimon	–	0,95 ÷ 0,97
Bir juft dumalash podshipniklari	η= 0,99 ÷ 0,95	
Bir juft sirpanish podshipniklari	η= 0,98 ÷ 0,99	

2) Dvigatel quvvatini qabul qilish

$$P_d = \frac{P_{chiq}}{P_{um}} = \qquad kVt$$

3) Dvigatel kuchining ma'lum qiymatiga asoslanib, elektr motorni 2.1 – rasmdan (2.2 – jadval) tanlaymiz

2.2 – jadval

Quvvati P, kVt	n_c aylanishlar soni, 1/min			
	3000	1500	1000	750
0,25	–	–	–	71B8/680
0,37	–	–	71A6/910	80A8/675
0,55	–	71A4/1390	71B6/900	80B8/700
0,75	71A2/2840	71B4/1390	80A6/915	90LA8/700
1,1	71B2/2810	80A4/1420	80B6/920	90LB8/700

1,5	80A2/2850	80B4/1415	90L6/935	100L8/700
2,2	80B2/2850	90L4/1425	100L6/950	112MA8/700
3,0	90L2/2840	100S4/1435	112MA6/955	112MB8/700
4,0	100S2/2880	100L4/1430	112MB6/955	132S8/720
5,5	100L2/2880	112V4/1445	132S6/965	132M8/720
7,5	112V2/2900	132S4/1455	132V6/970	160S8/730
11	132M2/2900	132M4/1460	160S6/975	160M8/730
15	160S2/2940	160S4/1465	160M6/975	180M8/730
18,5	160M2/2940	160M4/1465	180M6/975	–

4A seriali elektrodvigatellar

2.3 – jadval

Elektrodvigatel markalari	Polyuslar soni	Gabarit o'lchamlari,mm				O'lchamlari, mm								
		L_1	L_2	H	D	d_1	d_2	l_1	l_2	l_3	b	d	h	h_o
4A71	2:4:6:8	285	330	201	170	19	19	40	45	90	112	7	71	9
4A80A		300	355	218	186	22	22	50	50	100	125	10	80	10
4A80B		320	375											
4A90L		350	405	243	208	24	24	50	56	125	140	10	90	11
4A100S	2:4:6:8	365	427	265	235	28	28	60	63	132	160	12	100	12
4A100L		395	457	230						140				
4A112M		452	534	310	260	32	32	80	70	140	190	12	112	12
4A132S		480	560	350	302	38	38	80	89	178	216	12	132	13
4A132M		530	610											
4A180S	2	624	737	430	358	42	42	110	108	178	254	15	160	18
	4:6:8					48								
4A160M	2	667	780	430	358	42	42	110	108	210	254	15	160	18
	4:6:8					48								
4A180S	2	662	778	470	410	48	48	110	121	203	279	15	180	20
	4:6:8					55				241				
4A180M	2	702	818	470	410	48	48	110	121	241	279	15	180	20

4) Uzatmaning uzatishlar sonini aniqlash:

$$u_{um}=\frac{n_d}{n_{u.ay}}=$$

n_d - dvigatel valining aylanishlar soni, 1/m;

$n_{u.ay}$ - uzatmadagi ishchi valining aylanishlar soni, 1/m.

5) Valning aylanishlar sonini aniqlash:

$n_o=n_d=n_1=$ *1/min;*

$n_2=\frac{n_1}{u_{um}}=$ *1/min.*

6) Boshlang'ich burchak tezligi, tezyurar valning burchak tezligini aniqlash:

$$\omega_o=\omega_1=\frac{\pi \cdot n_1}{30}=$$ *1/s*

7) Tinch holatdagi valning burchak tezligini aniqlash:

$$\omega_2=\frac{\pi \cdot n_2}{30}=$$ *1/s*

8) Uzatmaning vallaridagi quvvat, kVt:

$P_0=P_d=$ *kVt;*

$P_1=P_o \cdot \eta_m=$ *kVt;*

$P_1=P_o \cdot \eta_z=$ *kVt;*

9) Uzatma vallaridagi burovchi momentlar:

$$M_0=\frac{P_o}{\omega_o}=$$ *N·m;*

$$M_1=\frac{P_1}{\omega_1}=$$ *N·m;*

$$M_2=\frac{P_2}{\omega_2}=$$ *N·m;*

Materiallarni tanlash

Uzatmaning ishlash sharoiti hamda g'ildirak o'lchamlarini hisobga olgan holda yetaklovchi va yetaklanuvchi tishli g'ildiraklar uchun materiallar 2.4 – jadvalda keltirilgan.

Yetaklovchi va yetaklanuvchi tishli g'ildiraklar uchun 45,40X, 40XH, 35XM, 45XL markali po'lat materiallari tanlanadi.

Tishli g'ildiraklar uchun material hamda termiknqayta ishlashni tanlash $[\sigma_{FO}]$ va $[\sigma_{HO}]$ lari qiymatlari

2.4 – jadval

Tish yuzasining qattiqligi	269 ÷ 302 HB	235 ÷ 262 HB	45 ÷ 50 HRC 48 ÷ 53 HRC 50 ÷ 56 HRC	269 ÷ 302 HB	45 ÷ 50 HRC 48 ÷ 53 HRC 50 ÷ 56 HRC
Tishli g'ildiraklarning materiallarini tanlash	45,40X, 40XH, 35XM, 45XL				
$[\sigma_{FO}]$	1,03 HB o'r	m≥3 bo'lganda 370 m<3 bo'lganda 370	1,03 HB o'r	m≥3 bo'lganda 370 m<3 bo'lganda 370	480
$[\sigma_{HO}]$	1,8 HB o'r +67	14 HB o'r +170	1,8 HB o'r +67	14 HB o'r +170	19 HB o'r

Ruxsat etilgan $[\sigma_H]$ va $[\sigma_F]$ kuchlanishlar

Ruxsat etilgan kontakt $[\sigma_H]$ va egilishdagi $[\sigma_F]$ kuchlanishlarning qiymatlari yetaklanuvchi va yetaklovchi tishli g'ildiraklar uchun alohida aniqlanadi:

$$[\sigma_H]=K_{HL}\cdot[\sigma_{HO}]\ MPa,\ [\sigma_F]=K_{FL}\cdot[\sigma_{FO}]\ MPa$$

Bu yerda: $[\sigma_H]$ va $[\sigma_F]$ – kuchlanishlar siklining o'zgarishiga bog'liq ruxsat etilgan kuchlanishlar bo'lib, qiymati 2.5 – jadvaldan olinadi.

K_{HL}- uzatmaning ishlash muddatini hisobga oluvchi koeffitsiyent:

$$K_{HL}=m\sqrt{\frac{N_{HO}}{N_2}}$$

N_{HO} - yuklanish davrlarining asosiy soni 2.6 – jadvaldan olinadi; m=6 – daraja ko'rsatkichi (termik qayta ishlash yaxshi bo'lganda).

K_{FL} - uzatmaning ishlash muddatini hisobga oluvchi koeffitsiyent:

$$K_{FL}=m\sqrt{\frac{N_{FO}}{N}}$$

Bu yerda: $N_{FO}=4\cdot10^6$- o'zgaruvchan yuklanish sikli; m=9 – daraja ko'rsatkichi (termik qayta ishlash toblashda).

Po'lat materiallarining mexanik ta'riflari

2.5 – jadval

Po'lat materiallari	Diametr d, mm	Eni b, mm	Tishning markazida HB	Tishning yuzasida HRC	σ_M	σ_{oq}
					MPa	
45	125	80	235 ÷ 262		780	540
	80	50	269 ÷ 302		890	650
	200	125	235 ÷ 262		790	640
40 X	125	80	269 ÷ 301		900	750
	125	80	269 ÷ 302	45 ÷ 50	900	750
	315	200	235 ÷ 262		800	670
35 XM	200	125	269 ÷ 302		920	790
	200	125	269 ÷ 302	48 ÷ 53	920	790
40 XM	315	200	235 ÷ 262		800	630
	200	125	269 ÷ 302		920	750
	200	125	269 ÷ 302	48 ÷ 53	920	750
40 XЦ	315	200	235 ÷ 262			660
	200	125	269 ÷ 302			780
	200	125	269 ÷ 302	50 ÷ 56		780
20 X 20 XHM 18 XГM 25 XГHM	200	125	300 ÷ 400	56 ÷ 63		800

N_{HO} - qiymatlari

2.6 – jadval

G'ildirak tishlar yuzasining o'rtacha qattiqligi	HB o'r	200	250	300	350	400	450	500	550	600
	HRC o'r	–	25	32	38	43	47	52	56	60
$N_{HO} \cdot 10^6$ mln		10	16,5	25	35,4	50	68	87	114	143

2.2. Silindirsimon uzatmaning hisobi

Uzatmaning asosiy o'lchamlari o'qlararo masofa a_ω, uzatishlar soni u, tish eni b, koeffitsiyenti ψ_{ba}, modul m va tishning qiyalik burchagi β.

1. O'qlararo masofa a_ω

$$a_\omega = K_a(1+u)3\sqrt{\frac{K_{H\beta} \cdot T_2 \cdot 10^3}{\psi_{ba} \cdot u^2 \cdot [\sigma_H]^2}}$$

Bu yerda: K_a- o'qlararo masofa koeffitsiyenti bo'lib, qiya tishli uzatmalar uchun K_a=43, to'g'ri tishli uzatmalar uchun K_a=49,5 bo'ladi.

$K_{H\beta}$ – yuklanishning tish yuzasida notekis taqsimlanishini hisobga oluvchi koeffitsiyent bo'lib, natijalar 2.7 – jadvaldan olinadi.

ψ_{ba} va $K_{H\beta}$ koeffitsiyentlari

2.7 – jadval

Yetaklovchi tishli g'ildiraklarning tayanchga nisbatan joylashishi	ψ_{ba}	Tish yuzasining qattiqligi, HB	
		≤350	>350
Simmetrik	0,4 ÷ 0,5	1,00 ÷ 1,15	1,05 ÷ 1,25
Nosimmetrik	0,25 ÷ 0,4	1,10 ÷ 1,25	1,15 ÷ 1,35
Konsol	0,2 ÷ 0,25	1,20 ÷ 1,35	1,25 ÷ 1,45

2. Yetaklanuvchi tishli g'ildiraklar eni $b_2 = \psi_{ba} \cdot a_\omega$

3. Yetaklovchi tishli g'ildiraklar eni $b_1=1,12\cdot\psi_{ba}\cdot a_\omega$

4. Kontakt kuchlanishning hisobiy qiymati

$$\sigma_H=K\cdot\sqrt{\frac{F_t(u+1)\cdot K_H}{b_2\cdot d_2}}\le[\sigma_H]$$

Bu yerda: K- qo'shimcha koeffitsiyent, to'g'ri tishli silindrsimon g'ildiraklar uchun – 430, qiya tishli silindrsimon g'ildiraklar uchun – 376.

$F_t=2T_2/d_2$- aylanma kuch.

$K_H=K_{H\alpha}\cdot K_{H\beta}\cdot K_{HV}$- yuklanish koeffitsiyenti

$K_{H\alpha}$ – yuklanishni tishlararo notekis taqsimlanishni hisobga oluvchi koeffitsiyent, qiymati 2.8 – jadvaldan olinadi.

$K_{H\alpha}$- koeffitsiyent

2.8 – jadval

Aniqlik darajasi	Uzatma g'ildiraklarining aylanma tezligi, m/s				
	1 gacha	5 gacha	10 gacha	15 gacha	20 gacha
6	1	1,02	1,03	1,04	1,05
7	1,02	1,05	1,07	1,10	1,12
8	1,05	1,09	1,13	–	–
9	1,09	1,06	–	–	–

2.9 – jadval

Aniqlik darajasi	Uzatma g'ildiraklarining aylanma tezligi, m/s			
	To'g'ri tishli		Qiya tishli	
	silindrsimon	konussimon	silindrsimon	konussimon
6	15 gacha	12 gacha	30 gacha	20 gacha
7	10	8	15	10
8	6	4	10	7
9	2	1,5	4	8

$K_{H\nu}$- koeffitsiyenti

2.10 – jadval

Uzatmalar	Tish yuzasining qattiqligi HB	Aylanma tezligi, m/s			
		5 gacha	10	15	20
		Aniqlik darajasi			
		8		7	
To'g'ri tishli	≤350	1,05	–	–	
	>350	1,10	–	–	
Qiya va shevron tishli	≤350	1,0	1,01	1,02	1,05
	>350	1,0	1,05	1,07	1.10

5. Yetaklanuvchi tishli g'ildirak tish bo'luvchi aylanasining diametri aniqlanadi:

$$d_2 = \frac{2 \cdot a_\omega \cdot u}{(u+1)} \quad mm$$

6. Uzatma g'ildiraklarining ilashish moduli aniqlanadi

$$m_n \geq \frac{2 \cdot K_m \cdot T_2}{d_2 \cdot b_2 \cdot [\sigma_F]} \; mm$$

K_m – modul koeffitsiyenti; to'g'ri tishli silindrsimon g'ildiraklar uchun – 6,8; qiya tishli silindrsimon g'ildiraklar uchun – 5,8; ikki tomonlama qiya tishli silindrsimon g'ildiraklar uchun – 5,2.

$[\sigma_F]$ qiymati o'rniga $[\sigma_F]_1$, $[\sigma_F]_2$ lar qiymatining kichigi olinadi.

7. Uzatma g'ildirak tishlarining umumiy soni:

$$Z_y = \frac{2 \cdot a_\omega \cdot cos\beta_{min}}{m}$$

8. Yetaklovchi g'ildirak tishlari soni:

$$Z_1 = \frac{Z_y}{1+u} \geq Z_{1\,min}$$

To‘g‘ri tishli silindrsimon g‘ildiraklar uchun Z_1=17, qiya tishli silindrsimon g‘ildiraklar uchun $Z_{1\,min}= 17cos^3\beta$.

Yetaklanuvchi g‘ildirak tishlari soni $Z_2=Z_1 \cdot u$; $Z_2=Z_y-Z_1$

9. Uzatma g‘ildiraklarining geometrik o‘lchamlari 2.1 – rasm (2.11 – jadval)



2.1 – rasm. Silindirsimon g‘ildirakli uzatmalarning geometrik o‘lchamlari

2.11 – jadval

G‘ildirak diametrlari	To‘g‘ri tishli silindrsimon g‘ildiraklar	Qiya tishli silindrsimon g‘ildiraklar
Tish bo’luvchi aylanasining diametri a) Yetaklovchi g‘ildirak b) Yetaklanuvchi g‘ildirak	$d_1=mZ_1$ $d_2=mZ_2$	$d_1=mZ_1/cos\beta$ $d_2=mZ_2/cos\beta$
Tashqi diametr a) Yetaklovchi g‘ildirak b) Yetaklanuvchi g‘ildirak	$d_{a1}=d_1+2m$ $d_{a2}=d_2+2m$	$d_{a1}=d_1+2m_n$ $d_{a2}=d_2+2m_n$
Tish osti diametri a) Yetaklovchi g‘ildirak b) Yetaklanuvchi g‘ildirak	$d_{f1}=d_1-2,5m$ $d_{f2}=d_2-2,5m$	$d_{f1}=d_1-2,5m_n$ $d_{f2}=d_2-2,5m_n$

2.3. Yopiq konussimon uzatmaning hisobi

Uzatmaning asosiy o'lchamlari yetaklanuvchi g'ildirak tashqi diametri d_{e2}, uzatishlar soni u, tish eni b, modul m va tishning qiyalik burchagi β.

1. Yetaklanuvchi g'ildirak tashqi diametri

$$d_{e2} \geq 165 \cdot 3 \sqrt{\frac{K_{H\beta} \cdot u \cdot T_2}{\nu_H \cdot [\sigma_H]^2}} \quad mm,$$

ν_H - to'g'ri tishli konussimon uzatmalar uchun 0,85 ga teng bo 'ladi.

2. Uzatma g'ildiraklarining asosiy o 'lchamlari aniqlanadi

a) Boshlang 'ich konus burchagi

$$\varphi_1 = arctg\frac{1}{u}; \qquad \varphi_2 = 90 - \varphi_1$$

b) Tashqi konus uzunligi

$$R_e = \frac{d_{e2}}{2sin\varphi_2}$$

c) G'ildirak tishli qismining eni

$$b = 0,285 R_e$$

3. Kontakt kuchlanishva ruxsat etilgan kuchlanish solishtiriladi

$$\sigma_H = 2120 \sqrt{\frac{u \cdot T_2 \cdot K_{H\beta}}{V_H \cdot d_{e2}^3}} \leq [\sigma_H]$$

Aniqlangan kontakt $[\sigma_H]$ kuchlanish ruxsat etilgan kontakt kuchlanishdan 3% dan oshmasligi kerak. Agarda $\sigma_H / [\sigma_H]$ bo'lsa, d_{e2} ning qiymati kamaytiriladi.

4.

$$m_e (m_{te}) = \frac{14 \cdot K_{F\beta} \cdot T_2}{V_F \cdot d_{e2} \cdot b \cdot [\sigma_F]} \quad mm,$$

$K_{F\beta}$ – koeffitsiyenti qiymati 2.12 – jadvaldan olinadi.

2.12 – jadval

$\psi_{bd}=\frac{b}{a}$	Yetaklovchi g'ildirakning tayanchiga nisbatan joylashtirish							
	simmetrik		nosimmetrik		konsol			
					Zoldirli podshipnik		Rolikli podshipnik	
	Tish yuzasining qattiqligi							
	≤350	>350	≤350	>350	≤350	>350	≤350	>350
0,2	1,00	1,03	1,04	1,05	1,18	1,35	1.10	1,20
0,4	1,03	1,07	1,07	1,10	1,37	1,70	1,21	1,45
0,6	1,05	1,09	1,12	1,18	1,62	–	1,40	1,72
0,8	1,08	1,13	1,17	1,28	–	–	1,59	–
1,0	1,10	1,20	1,23	1,40	–	–	–	–
1,2	1,13	1,30	1,30	1,53	–	–	–	–
1,4	1,19	1,40	1,38	–	–	–	–	–
1,6	1,25	–	1,45	–	–	–	–	–
1,8	1,32	–	1,53	–	–	–	–	–

5. Uzatma g'ildirak tishlarining sonini aniqlash
   a) Yetaklovchi g'ildirak tishlar soni $Z_2=d_{e2}/m_e(m_{te})$
   b) Yetaklanuvchi g'ildirak $Z_1=Z_1/u$
6. Uzatish sonining hisobiy qiymati

$$u_x=\frac{Z_2}{Z_1}$$

Hisobiy qiymat berilgan qiymatdan 4% farq qilishi mumkin

$$\Delta u=\frac{(u_x-u)100}{u}\leq[4\%]$$

7. Uzatma g'ildiraklarining geometrik o'lchamlari 2.2 – rasm (2.13 – jadval)



2.2 – rasm. Konussimon g'ildirakli uzatmalarning geometrik o'lchamlari

2.13 – jadval

G'ildirak diametrlari	To'g'ri tishli uzatmalar uchun
Tish bo'luvchi aylanasi diametri a) Yetaklovchi g'ildirak b) Yetaklanuvchi g'ildirak	$d_{e1} = m_e \cdot Z_1$ $d_{e2} = m_e \cdot Z_2$
Tashqi diametr a) Yetaklovchi g'ildirak b) Yetaklanuvchi g'ildirak	$d_{ae1}=d_{e1}+2m_e\cos\varphi_1$ $d_{ae2}=d_{e2}+2m_e\cos\varphi_2$
Tish osti diametri a) Yetaklovchi g'ildirak b) Yetaklanuvchi g'ildirak	$d_{ae1}=d_{e1}-2,4m_e\cos\varphi_1$ $d_{ae2}=d_{e2}-2,4m_e\cos\varphi_2$

2.4. Chervyakli uzatmaning hisobi

Uzatmaning asosiy o'lchamlari o'qlararo masofa a_ω, uzatishlar soni u, chervyakning kirim soni Z_1 chervyakli g'ildirakning tishlar soni Z_2, modul m, chervyak diametri koeffitsiyenti q, chervyak o'ramining ko'tarilish burchagi γ, chervyak o'ramining uzunligi b_1 va chervyakli g'ildirakning eni b_2.

1. Chervyak va chervyakli g'ildiraklar uchun material 2.14 – jadvaldan tanlanadi.

2.14 – jadval

Tish yuzasining qattiqligi	269 ÷ 302 HB	235 ÷ 262 HB	45 ÷ 50 HRC 48 ÷ 53 HRC 50 ÷ 56 HRC	269 ÷ 302 HB	45 ÷ 50 HRC 48 ÷ 53 HRC 50 ÷ 56 HRC
Tishli g'ildiraklarning materiallarini tanlash	45,40X, 40XH, 35XM, 45XЦ				
$[\sigma_{FO}]$	1,03 HB o'r	m≥3 bo'lganda 370 m<3 bo'lganda 370	1,03 HB o'r	m≥3 bo'lganda 370 m<3 bo'lganda 370	480
$[\sigma_{HO}]$	1,8 HB o'r +67	14 HB o'r +170	1,8 HB o'r +67	14 HB o'r +170	19 HB o'r

Chervyakli g'ildirakning tishli gardishi antifiriksion xususiyatga ega materiallardan tayyorlanib 2.15 – jadvaldan uzatmaning sirpanish tezligiga nisbatan tanlanadi.

$$V_c \approx 0,0043\omega_1\sqrt{T_2} \quad l/s$$

2.15 – jadval

Materiallar gruppasi	Materiallar markalari	Quyish usuli	σ_{OK}	σ_M	σ_{B9}	V
I	Бр010Н1Ф1	Markazdan qochma usul	165	285	–	5

	Бр010Ф1		195	245	–	5
	Бр010Ф1	Qumda	132	215	–	5
II	БрА9Ж3Л	Markazdan qochma usul	200	500	–	2...5
	БрА9Ж3Л		195	490	–	2...5
	БрА9Ж3Л	Qumda	195	392	–	2...5
III	С4.15	Qumda			280	2

2. Ruxsat etilgan kuchlanish

I – gruppa uchun $[\sigma_H]=K_{HL}\cdot C_V\cdot[\sigma_{HO}]$ MPa

Bu yerda: K_{HL} - uzatmaning uzoq muddat ishlashini hisobga oluvchi koeffitsiyent

$$K_{HL}=\sqrt{\frac{10^7}{N}}$$

$N=573\omega_2 L_h$ - o'zgaruvchan yuklanishlar soni $N=25/10^7$ bo'lsa, $N=25\cdot10^7$

L_h - uzatmaning ishlash muddati, soat hisobida

C_V - chervyakli g'ildirakning yeyilishini hiobga oluvchi koeffitsiyenti bo'lib, qiymati sirpanish tezligiga nisbatan olinadi:

V_c	5	5	7	8
C_V	0.95	0.88	0,83	0,8

$[\sigma_H]$- o'zgaruvchan yuklanishlar soni 10^7 siklga to'g'ri kelgan ruxsat etilgan kontakt kuchlanish

$$[\sigma_H]=(0,75\div0,99)\sigma_M \ MPa$$

Bu yerda: ≤350 HB bo'lganda 0,75 olinadi, ≥45 HRC bo'lganda 0,9 olinadi

II – gruppa uchun

$$[\sigma_H]=[\sigma_{HO}]-25V_c \quad MPa$$

Bu yerda: ≤350 HB bo'lganda $[\sigma_{HO}]$=250 MPa olinadi, ≥45 HRC bo'lganda $[\sigma_{HO}]$ =300MPa olinadi.

III – gruppa uchun

$[\sigma_{HO}] = 175 - 35\ V_c \quad MPa$

Ruxsat etilgan egilishdagi kuchlanish:

Bu yerda:

$$K_{FL} = 3\sqrt{\frac{10^7}{N}}$$

$N = 573\omega L_h$- sikllar soni

I,II – gruppa uchun $[\sigma_{FO}] = 0,25\sigma_{OK} + 0,08\sigma_M$

III – gruppa uchun $[\sigma_{FO}] = 0,12\sigma_{B9}$

3. O'qlararo masofa

$$a_\omega \geq 61 \cdot 3\sqrt{\frac{T_2}{[\sigma_H]^2}} \quad mm$$

a_ω = 80, 100, 125, 140, 160, 180, 200, 225, 250, 280, 315, 356, 400, 450, 500, 560, 630, 710.

4. Chervyakning kirimlar soni Z_1

u.....8 dan 14 gacha	14 dan 30 gacha	30 dan yuqori
4	2	1

Yetaklanuvchi g'ildirak uchun tishlar soni:

$$Z_2 = Z_1 \cdot u \geq Z_{min} = 28$$

5. Uzatmaning moduli:

$$m = (1,5 \div 1,7)\frac{a_\omega}{Z_2}$$

Aniqlangan qiymatlar standart bo'yicha yaxlitlanadi, 2.16 – jadval

m	2,5; 3,5; 4,5	6; 3; 8; 10, 12,5;	6
q	8; 10; 12,5; 16; 20;	8; 10, 12,5; 14; 16, 20	8; 10; 12,5; 16

6. Chervyakning diametr koeffitsiyenti

$$q = \frac{2a_\omega}{m} + Z_z \geq q_{min}$$

q – ning eng kichik qiymati q_{min} =0,212 Z_2

7. Siljish koeffitsiyenti

$$X=\left(\frac{a_\omega}{m}\right)-0,5(Z_2+q)$$

8. Uzatish sonining hisobiy qiymati

$$u_x=\frac{Z_2}{Z_1};\qquad \Delta u=\frac{(u_x-u)}{u}\cdot 100\%\le[4\%]$$

9. Uzatma g'ildiraklarining geometrik o'lchamlari 2.3 – rasm (2.17 – jadval)



2.3 – rasm. Chervyakli g'ildirak uzatmalarining geometrik o'lchamlari

2.17 – jadval

Chervyak va chervyakli g'ildirak geometrik o'lchamlari		Chervyak	Chervyakli g'ildirak
Tish bo'luvchi aylanasining diametri		$d_1=mq$	$d_2=mZ_2$
Tashqi diametr		$d_{a1}=d_1+2m$	$d_{a2}=d_2+2(1+x)m$
Tish osti diametr		$d_{f1}=d_1-2,4m$	$d_{f2}=d_2-2(1,2-x)m$
Chervyakli g'ildirakning eng katta tashqi diametri		–	$d_{aT2}\le d_{a2}+\frac{6m}{Z_1+Z}$
Chervyak	$Z_1=1,2$	$b_1\ge(11+0,06Z_2)m$	–

o'ramining uzunligi	$Z_1=4$	$b_1 \geq (12,5+0,09Z_2)m$	–
Chervyakli g'ildirakning tishli qismining eni	$Z_1=1,2$	–	$b_2 \leq 0,75d_{a1}$
	$Z_1=4$	–	$b_2 \leq 0,62d_{a1}$

10. Kontakt kuchlanishning hisobiy qiymati

$$\sigma_H = \frac{480}{d_2}\sqrt{\frac{K_H \cdot T_2}{d_1}} \leq [\sigma_H]$$

Bu yerda: K_H=1,0; V_c>3 m/s bo'lganda K_H=1,1 ÷ 1,3 bo'ladi.

Sirpanish tezligining hisobiy qiymati $V_c = V_1/cos\gamma$

Bu yerda: $V_1 = 0,5\omega_1 d_1$ - chervyakning aylanma tezligi

γ - chervyak o'ramining ko'tarilish burchagi, qiymati q va Z_1 nisbatan 2.18 – jadvaldan olinadi.

2.18 – jadval

Kirim soni	Chervyak diametr koeffitsiyenti					
	8	10	12,5	14	10	20
1	7°7′	5°43′	4°35′	4°05′	3°35′	2°52′
2	14°2′	11°19′	9°6′	8°3′	7°7′	5°43′
4	26°34′	21°48′	15°57′	14°2′	14°2′	11°19′

11. Uzatmaning foydali ish koeffitsiyenti

$$\eta = \frac{tg\gamma}{tg(\gamma+\rho')}$$

Bu yerda: ρ' – ishqalanish burchagi, qiymati sirpanish tezligiga nisbatan 2.19 – jadvaldan olinadi.

2.19 – jadval

V_c	0,5	1,0	1,5	2,0	2,5	3,0	4,0	7,0	10	15
ρ'	3°10′	2°30′	2°20′	2°00′	1°20′	1°30′	1°20′	1°00′	0°55′	0°50′
	3°40′	3°10′	2°50′	2°30′	2°20′	2°00′	1°40′	1°30′	1°20′	1°10′

12. Ilashishda hosil bo'lgan kuchlar.

Chervyakli g'ildirakka ta'sir qiluvchi aylanma kuch chervyakdagi bo'ylama kuchga teng:

$$F_{t2}=F_{a1}=\frac{2T_2}{d_2}$$

Chervyakdagi aylanma kuch chervyakli g'ildirakdagi bo'ylama kuchga teng:

$$F_{t1}=F_{a2}=\frac{F_{t2}Z_1}{q\cdot\eta}$$

Radial kuch $F_r=F_{t2}\cdot tg\alpha$ $\alpha=20^o$

13. Chervyakli g'ildirak tishlaridagi egilish kuchlarining hisobiy qiymati

$$\sigma_F=0,7\frac{Y_F\cdot K_F\cdot F_{t2}}{mb_2}\le[\sigma_F]$$

K_F - yuklanish koeffitsiyentining qiymati

Y_F- tish shaklining koeffitsiyenti qiymati 2.20 – jadvaldan olinadi.

2.20 – jadval

Z_{kel}	Y_{F2}	Z_{kel}	Y_{F2}	Z_{kel}	Y_{F2}	Z_{kel}	Y_{F2}
20	1,98	30	1,76	40	1,55	80	1,34
24	1,88	32	1,77	45	1,48	100	1,30
26	1,85	35	1,64	50	1,45	150	1,27
28	1,80	37	1,61	60	1,40	300	1,24

14.Uzatmaning qizishini tekshirish

a) Uzatma sun'iy ravishda sovitilmasa

$$t=\frac{(1-\eta)P_1}{(K_c\cdot A)}+20\le[t^o]=95^o$$

b) Uzatma sun'iy ravishda sovitilsa

$$t=\frac{(1-\eta)P_1}{[(0,7K_T+0,3K_{CB})\cdot A]}+20\le[t^o]=95^o$$

Bu yerda: K_c - sovitish koeffitsiyenti 12 – 18 Vt/m^2

K_{CB} - sovitish uchun vintilyator ishlatilsa

n_d=750	1000	1500	3000
K_e=17	21	19	40

$[t^o]=95^o$ C ruxsat etilgan qiymat.

A - uzatmada sovitiladigan yuza, qiymati 2.21 – jadvaldan olinadi.

P_1 - chervyak validagi quvvat.

